**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ХАЛҚ ТАЪЛИМИ ВАЗИРЛИГИ**

**АБДУЛЛА ҚОДИРИЙ НОМЛИ ЖИЗЗАХ ДАВЛАТ**

**ПЕДАГОГИКА ИНСТИТУТИ**

**УМУМИЙ ТАРИХ КАФЕДРАСИ**

"Ҳимоя қилишга рухсат бераман"

Тарих факультети декани

___________ доц.Ғозиев С.Х.

"____" __________________ 2012 й.

**5140600 –Тарих**

Фарғона водийсида истиқлолчилик ҳаракати номоёндалари. (Шермуҳаммад кўрбоши мисолида) мавзусида бажарилган

# БИТИРУВ МАЛАКАВИЙ ИШИ

Бажарувчи: Андақулов Бегзод

Илмий раҳбар: Ҳамраев Ғайрат

Ишни ҳимояга тавсия этаман _____________________ _______

(илмий раҳбар исми ва шарифи) (имзо)

БМИ ______________________________ кафедраси йиғилишининг қарори билан (Қарор №10, 18.05.2012 й) ҳимояга тавсия этилган.

Кафедра мудири

________________________ _________

(Исми, ва шарифи) (имзо)

**Жиззах - 2012**

**А.Қодирий номидаги ЖДПИ Тарих факультета Тарих йўналиши 401-гуруҳ толиби Андақулов Бегзоднинг „Фарғона водийсида истиқлолчилик ҳаракати номоёндалари (Шермуҳаммад қўрбоши мисолида” мавзусидаги Битирув малакавий ишига**

## ТАҚРИЗ

Тадқиқот ишининг долзарблиги касб-ҳунар коллежлари амалиётида объектив ҳолда мавжуд зиддиятларни бартараф этиш ва тадқиқот мавзусига оид методик адабиётлар йўқлиги билан асосланади. Ушбу битирув малакавий иши эса ана шундай зидциятларни бартараф этишга уринишлардан бири ҳисобланади.

Ишда қаралаётган тушунчаларнинг методологик, психологик- педагогик асослари баён этилган. Назарий қисм мазмунли такдим этилган. Муаллиф ўз ишида педагогика, психология ва ўқитиш методикаси курслари бўйича асосий назарий тайёргарлигини, мустақил ишлаш ва педагогик' масалаларни ижодий ҳал эта олиш кўникмаларини намоён эта олган.

401-гуруҳ битирувчи толиби Андакулов Бегзоднинг мазкур танлаган мавзуси бугунги кунда ниҳоятда долзарб саналади. Фаргона водийсидаги истиқлолчилик ҳаракатлари номоёндалари жумладан Шермуҳаммадбек қўрбоши Фаргона водийсини уни узоқ вақт сақлаб туриш учун қўлидан келган барча сиёсий, маьмурий, иқтисодий чораларни қўллади.

Мазкур БМИ Кириш, 2 та боб, 6 та параграф, Хулоса ва фойдаланилган адабиётлар рўйхатидан иборат.

Кириш қисмида мавзунинг долзарблиги, мақсади ҳамда мавзунинг илмий янгилиги қисқача асослаб берилган.

1-бобда. XX аср бошларида истиқлолчилик ҳаракатлари ва унинг тарихий аҳамияти. Бобнинг ёритилганлик даражаси яхши, етарли даражада асбсланган ва керакли манбалардан фойдаланилган.

2-бобда. Амирал Муслимин Шермуҳаммадбек Фаргонадаги истиқлолчилик ҳаракатининг ташкилотчиси ва раҳбари. Ушбу боб етарли даражада ёритилган. Иқтибослар ўз ўрнида кўрсатилган. Мазмуни қониқарли. Энг сўнгги параграфда мавзуни педагогик технологиялар асбсида ўқувчиларга ўргатиш усуллари баён қилииган.

Битирувчи талаба Б.Андақуловнинг мазкур малакавий иши билан бошидан охиригача танишиб чиқцим. Талаба тадқиқот ишини ёзишда анча меҳнат қилганлиги сезилиб турибди. Ишнинг сифати, ёритилганлик даражаси яхши деб ҳисоблайман. Мазкур кичик тадқиқот ишига ижобий баҳо бераман.

**Тақризчи:**  **доц.Р.Нурқулова**

**А.Қодирий номидаги ЖДПИ Тарих факультети 4 курс толиби Андақулов Бегзоднинг Фарғона водийсида истиқлдлчилик ҳаракати номоёндалари. (Шермуҳаммад қўрбоши мисолида) мавзусида бажарилган БМишига**

# ТАҚРИЗ

БМишида Фарғона водийсидаги истиқлолчилик ҳаракатлари унинг йўлбопгчилари ўзбек халқи учун қилган жасоратлари, тарихий, ижтимоий ва назарий нуктаи назардан тахдил қилишга ҳаракат қилинган. Унда Шермуҳаммад қўрбошининг фаолияти миллат ёшларининг қарашлари асосида очиб берилган. Битирув малакавий ишида Шермуҳаммад қўрбоши, Анвар пошо сиймоларининг жамиятимизда тутган ўрни ва аҳамияти далиллар ва фактлар асосида кўриб чиқилган. Аждодларимизнинг қимматли меросини, юритган сиёсати ва фаолиятини тадбиқ қилиш йўлида “Фарғона водийсида олиб борилган истиқлолчилик ҳаракатлари” мавзусидаги ушбу БМиши кичик изланиш намунасидир.

Битирув малакавий ишининг кириш қисмида мавзунинг долзарблиги таьсир этувчи омиллар тадқиқот вазифалари шулар ҳақида баён этилган:

1. I Боб. XX аср бошларидаги истиқлолчилик ҳаракатлари ва унинг тарихий аҳамияти

2. II Боб. Амирал Муслимин Шермуҳаммадбек-Фарғонадаги . истиқлолчилик ҳаракатининг ташкилотчиси ва раҳбари

3. III Боб. Фарғона водийсида истиқлолчилик ҳаракати мавзусини ўқитишни янги педагогик технология ва методларда ўтиш

Шунингдек мавзуга оид маьлумотлар тўлиқ бериб борилган. БМишини бажаришда бир неча адабиётлардан унумли фойдаланилган, битирув малакавий иши давлат таьлим стандартлари талабига мос келади.

**Мактаб директори:**

**14-мактаб Тарих фани ўвд**



**Mavzu: Farg'ona vodiysida istiqlolchilik harakati nomoyondalari (Shermuhammadbek Qo'rboshi misolida)**

**Kirish** …………………………………………………………………. ........3-7

**I Bob. XX asr boshlaridagi istiqlolchilik harakatlari va uning tarixiy ahamiyati** ………………………………………………………… ………...8-29

1.1. XX asr boshlaridagi istiqlolchilik harakatining mazmun-mohiyati… …8- 19

1.2. Farg'ona vodiysidagi istiqlolchilik harakatlari ………………………...20-29

**II Bob. Amiral Muslimin Shermuhammadbek-Farg'onadagi istiqlolchilik harakatining tashkilotchisi va rahbari** ……………………………………..30-63

2.1. Shermuhammadbek-Turkiston o'lkasi musulmon qo'shinlari bosh qo'mondoni

2.2. Shermuhammadbek va Anvar Posho o'rtasidagi munosabatlar ……….....44-54

2.3. Shermuhammadbekning muxojirlik davridagi siyosiy faoliyati ……......55-63

2.4. Mavzuni pedagogik texnologiyalar asosida o`quvchilarga o`rgatish…….64-93

**Xulosa** ……………………………………………………………….......94-97

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati** …………………………………….....98

# Kirish

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Ahmad al-Farg'oniy tavalludini nishonlash bilan bog'liq tadbirlar yuzasidan Quva va Farg'ona shahriga tashrif bayurib, keng jamoatchilik bilan qilgan suhbatlaridan birida istiqlol bayrog'ini baland ko'targan, milliy ozodlik kurashiga, qurolli harakatga bosh bo'lgan sarkardalardan Madaminbek va Shermuhammadbeklarni eslab o'tgan edilar. Chunki haqqoniy tariximizni, yangi tarixni yaratishda buyuk istiqlolimiz yo'lida kurashgan ulug' zotlar, ma`rifatparvaru adiblar, qo'mondonu lashkarboshilarning hayot yo'li, faoliyati taqdirini bilish, ularning betimsol ijtimoiy-siyosiy qiyofasini tiklash, bor haqiqatni hozirgi va kelajak avlodga yetkazish juda muhim ahamiyat kasb etadi.

I.Karimov so'zi bilan aytganda xalqimiz o'sha mustabid sovetlar tuzumi davrida biri „qizil askar", biri „bosmachi" biri „quloq", biri „komissar", yana biri „mushtumzo'r", yana qay biri „yo'qsil" deb guruhlarga ajratib tashlangandi. „Bo'lib tashla, so'ngra hukmronlik qil" shiorini amalga oshirish uchun eng makkor, qabiq usullar ishga solinib, bir millat vakillarini bir-biriga qarshi qayrash, adovat va nizo urug'ini sochish, shu yo'l bilan istiqlolchilar safini bo'lib yuborish, ularni alohida-alohida qirg'in qilish siyosati amalga oshirilgan edi. „Shu bois,-deb ko'rsatadi yo'lboshchimiz,-ota-bobolarimizga ana shunday ranglar bilan ajratib baho bermasligimiz, balki ularning hayotini, ular yashagan davr mohiyatini to'g'ri tushunish lozim"[1].

Islom Karimov ta`kidlaganidek „bundan bir yuzu o'ttiz yil muqaddam xalqimiz milliy mustaqilligi va tarixiy davlatchiligini yo'qotib, mustamlaka asoratiga tushib qolgan edi. Shu davr mobaynida ajdodlarimiz, millatimiz

---

[1] Karimov I.A. O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurmoqdamiz „Turkiston" gazetasi muhbirlarining bergan savollariga javoblari. „Turkiston" gazetasi, 1999 yil 2-fevral

mashaqqatli sinov va kurash yo'llarini bosib o'tdi"[1]. O'zbekistonning sovetlar davri tarixi ana shunday mashaqqatli, og'ir sinov va kurash yo'llaridan iboratdir. Bu deyarli o'rganilmagan tarixiy davr 1918-1934 yillar-xalqimizning Vatan, millat ozodligi yo'lida olib borgan milliy urushi, istiqlolchilik harakati. Sho'ro tuzumi bu davr o'rganishini man qilgan edi. Aksincha bu ozodlik kurashini bostirishga qaratilgan sovetlarning bosqinchilik urushlari tarixi madh qilingan, tarix bir tomonlama bitilgan, g'oliblar tarixi bitilgan holda mag'lublar tarixi kafanga o'rab berkitib qo'yilgan edi. Biroq oyni etak bilan yopib bo'lmaganidek yaqin o'tmishimizdagi ana shu istiqlol uchun kurashni tarixdan o'chirib bo'lmaydi. Har bir voqea, hodisa, jarayon, xoh ijobiy, xoh salbiy bo'lsin, xoh adolatli, xoh razolatli bo'lsin, ularning barchasi ustidan har bir siyosiy, harbiy, mafkuraviy arbob, omma, xalq yetakchisi darajasiga ko'tarilgan shaxs garchand jisman yo'q bo'lsa ham, barabir ular haqidagi bor haqiqat aytilishi zarur. Bunday shakllar tarix uchun hamisha barhayotdir. Ulardan yangidan-yangi avlodlar ibrat va bahra oladi, ularga taqlid qiladi, yaxshilari bilan farqlanadi, yomonlardan nafratlanadi. Qolaversa tarix shaxssiz bo'lmaydi. Har bir tarixning egasi bo'ladi. Egasiz tarix tarix emas. Shu nuqtai nazardan qaralganda bizning ona tariximizning ko'pdan-ko'p sahifalari, tarixiy voqealari va ularning qahramonlari hali-hanuz o'rganilganicha yo'q. Tariximizning ana shunday kemtik qirralaridan biri 1918-1934 yillarda Vatan, millat ozodligi, erku hurriyat uchun olib borgan mardonavor qurolli kurash tarixidir.

Bu qadar jozibali, salohiyatli, salobatli katta ko'lamli, favqulodda mazmunli, qudratli, ayni vaqtda ziddiyatli, ammo mislsiz qahramonlilik ko'rsatgan, ham talofat ko'rgan ko'plab qurbonlar bergan va kurash 16 yil davom etgan milliy ozodlik kurashidan tarixiy voqea jahon tarixida na XIX asrda, na XX asrda yuz bergan. Bu buyuk milliy kurash betakrordir. Sovet hokimiyati bu harakatni

---

[1] Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni xalq, millatni millat qilishga xizmat etsin. T.: „O'zbekiston" 1998, 3-bet

bostirish uchun 260-270 ming askar, zamonaviy qurollar bilan ish olib bordi. Yuz minglab yurtdoshlarimiz jon fido etdi, bir milliondan ziyod vatandoshlar xorijga chiqib ketdi, 1935-1939 yillarda o’n minglab mahalliy aholi „bosmachilar”ga qo’shilganlikda, yordam berganlikda yoki ular haqida ma`lumot bermaganlikda ayblanib, Sibir, Uzoq Sharq, shimolga surgun qilindi. Ayrim xorijdagi ma`lumotlarga qaraganda, O’rta Osiyo mintaqasida jami 5 mln 600 ming kishi bu yo’lda qurbon bo’lgan.

**Mavzuninng dolzarbligi**

Islom Karimov so’zi bilan aytganda xalqimiz o’sha mustabid sovetlar tuzumi davrida biri “qizil askar”, biri “bosmachi”, biri “quloq”, biri “mushtumzo’r”, yana biri “yo’qsil” deb guruxlarga ajratilib tashlangandi. “Bo’lib tashla , hukmronlik qil” shiorini amalga oshiish uchun eng makkor, qabix usullar ishga solinib, bir millat vakillarini bir biriga qarshi qayrash, adovat va nizo urug’ini sochish, shu yo’l bilan istiqlolchilar safini bo’lib yuborish, ularni alohida alohida qirg’in qilish siyosati amalga oshirilgan edi. “Shu bois, -deb ko’rsatadi yo’lboshimiz, -ota bobolarimizga ana shunday ranglar bilan ajratib baho bermasligimiz, balki ularning hayotini, ular yashagan davr mohiyatini tushunishga xarakat qilishimiz lozim”[1].O’zbekistonning sovetlar davri tarixi ana shunday mashaqqatli, og’ir sinov va kurash yo’llaridan iboratdir. Bu deyarli o’rganilmagan tarixiy davr 1918-1934 yillar xalqimizning Vatan, millat ozodligi yo’lida olib borganmilliy urushi, istiqlolchilik xarakati. Sho’ro tuzumi bu davr o’rganishini qat’iy man qilingan edi. Aksincha bu ozodlik kurashini bostirishga qaratilgan sovetlarning bosqinchilik urushlari tarixi madh qilingan, tarix bir tomonlama bitilgan, g’ol iblar tarixi bitilgan holda mag’lublar tarixi kafanga o’rab berkitilib qo’yilgan edi.Biroq oyni etak bilan yopib bo’lmaganidek yaqin o’tmishimizdagi ana shu istiqlol uchun kurashni tarixdan o’chirib bo’lmaydi. Xar bir voqea, xodisa,

[1] Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni xalq, millatni millat qilishga xizmat etsin. T. “O’zbekiston”, 1998 y. 3 bet.

jarayon, xoh salbiy bo'lsin, xoh adolatli, xoh razolatli bo'lsin, ularning barchasi ustidan vaqt, tarix o'z hukmini chiqaradi.

**Mavzu bo'yicha e'lon qilingan ilmiy, ilmiy metodik ishlar, shu jumladan mavzuga yaqin bo'lgan va avval bajarilgan BMIlari tahlili.**

Mavzu bo'yicha biron bir ilmiy ish yoki BMIlar xali yoqlanmagan.

**BMIning maqsad va vazifalari.**

Buyuk istiqlolimiz xaqqoniy yoritish uchun keng imkoniyatlar ufqini ochib berdi. Bunday bo'lishini o'sha yomonotliqqa chiqarilgan "bosmachilar", sarkarda, lashkarboshilar, qshrboshilarning o'zlari oldindan bashorat qilganlar, qachonlardir yurt qizil imperiya sirtmog'idan qutulib, mustaqil taraqqiyot yo'liga o'tishlariga qat'iyan ishonganlar. BMIimning asosiy maqsadi qilib qizil imperiya bosqini davrida Turkiston xalqlarining ularga qarshi vatan ozodligi uchun olib borgan kurashlari xaqida fikrlar bildiriladi. Faqatgina Farg'ona vodiysining o'zida Chor xukumatiga qarshi kurashgan qo'rboshilarning faoliyatini o'rganish maqsad qilib olingan. Ulardan Ergashbek (Katta Ergash) 1882 yil Bachqirda, Muhammadaminbek (Madaminbek) 1894 yili Marg'ilonda, Shermuhammadbek 1894 yil G'orbuvoda,Parpibek 1882 yil Andijonda, Jonibek Qozi 1867 yil O'zganda, Muhiddinbek 1877 yil KO'KJAR (Oloy)da, Omon Polvon 1867 yil Namanganda, Xolxo'ja Eshon 1874 yil O'shda, Islom Polvon 1882 yil Qorayozibuvo, Rahmonqulibek 1877 yil Ashobada, Nurmuhammadbek 1899 yil G'orbuvoda, Chor hukmatiga qarshi ozodlik uchun kurashgan eng yirik qo'rboshilardir. Ulardan tashqari Farg'ona milliy ozodlik harakatida ishtirok etgan qo'rboshilardan 416 nafar ozodlik xarakati yalovbardorlari zikr etilgan.

**BMIni bajarish bilan kutiladigan o'quv-uslubiy, ilmiy-uslubiy natijalar.**

Prezidentimiz Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat –yengilmas kuch" asarini o'qib, BMIimga yanada ma'suliyat bilan yanada jiddiy qarash kerakligini

anglab yetdim. Xususan, Prezidentimiz kitobidagi quyidagi so'zlar juda katta rag'bat bo'ldi.

"Har qaysi milliy qadriyatlarni o'z maqsad-muddaolari, shu bilan birga, umumbashariy taraqqiyot yutuqlari, shu bilan birga, umumbashariy taraqqiyot yutuqlari asosida rivojlantirib, ma'naviy dunyosini yuksaltirib borishga intilar ekan, bu borada tarixiy xotira masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Ya'ni, tarixiy xotira tuyg'usi to'laqonli ravishda tiklangan, xalq bosib o'tgan yo'l o'zining barcha muvaffaqiyati va zafrlari, yo'qotish va qurbonlari, quvonch va iztiroblari bilan xolis va haqqoniy o'rganilgan taqdirdagina chinakam tarix bo'ladi".

Biz bu masalaga ana shunday ilmiy asosda yondashib, qadimiy tariximizni o'rganish va baho berishda uning biror-bir davri yoki jabhasini e'tibordan chetda qoldirmaslikka harakat qildik. Jumladan, mustamlakachilik va sovet davridagi ommaviy qatog'onlar paytida zulm va zo'ravonlik qurboni bo'lgan, istiqlol yo'lida jon fido etgan ajdodlarimizning hurmati va xotirasini joyiga qo'yish, ularning el-yurt ozodligi yo'lidagi ishlari, qoldirgan merosini izlash va o'rganishni aynan ana shunday ma'naviy negizda yo'lga qo'yganimizni qayd etish zarur"[2]

*Mavzuning tarixshunosligi*

Bu hayot va mamot uchun kurash jarayonida xalq orasida ko'plab jasur sarkardalar, qo'mondonlar, qo'rboshilarning butun bir avlodi yetishib chiqdi. Shahobiddin Yassaviyning „Turkiston achchiq haqiqatlari" kitobida 114 qo'rboshi haqida ma`lumot keltirilgan. Ular orasida Farg'ona vodiysida kichik va katta Ergashlar, Muhammad Aminbek (Madaminbek) Shermuhammadbek, Omon Pahlavon, Jonibek qozi, Mahkam Hoji, Isroilbek, Ahmad Polvon, Rahmonquli, Islom Pahlavon, Xorazmda Junaidxon, Zarafshon vodiysida Mulla Abdulqahhor, Jo'ra Amin, Murod Meshkob, Mitan Polvon, Sharqiy Buxoroda Ibrohimbek

[2] Islom Karimov. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". "Ma'naviyat", T., 2008 y, 97 bet.

Laqay, Davlatmandbek va boshqalar bor edi. Bu zotlarning har birini maxsus tadqiq qilish lozim. Sho'rolar davrida ularning barchasiga xalq dushmani degan tamg'a yopishtirilgan, ular haqida biror og'iz ijobiy so'z aytishning mutlaqo imkoni bo'lmagan, aksincha, ular keragicha yomonga chiqarilgan, chin tarix o'rnini yolg'on tarix egallagan edi.

Buyuk istiqlolimiz tarixni haqqoniy yoritish uchun keng imkoniyatlar ufqini ochib berdi. Bunday bo'lishni o'sha yomonotliqqa chiqarilgan „bosmachilar", sarkarda lashkarboshilar, qo'rboshilarining o'zlari oldindan bashorat qilganlar, qochonlardir yurt qizil imperiya sirtmog'idan qutilib, mustaqil taraqqiyot yo'liga o'tishlariga qatiyan ishonganlar. Bu o'rinda Nyu-Yorkda yashayotgan Davronbeknng shaxsiy arxividan olgan bir hujjatga murojaat qilish joizdir. Shermuhammadbekning o'g'li Davronbekdan olingan hujjatda 1927 yili Shabon oyining birinchi-uchinchi kunlarida Qobul shahridagi Alimardon bog'ida butun Farg'onadan, Turkistondan muhojir bo'lib borib qolgan. „Bomsachilar", qo'rboshilar, ponsodlarning Shermuhammadbek raisligida andijonlik Abdulhay Mahdum kotibligida yig'ilish o'tkazilgan. Unda 1917-1924 yillarda Farg'ona vodiysidagi istiqlol urushi haqidagi esdaliklar umumlashtiriladi, vodiydan chiqqan qo'rboshilar, lashkarboshilar nomlari hamda Shermuhammadbek muhorabalaridan, tarjimai holidan lavhalar keltiriladi[1].

Ha, buyuk istiqlol tufayli milliy ozodlik urushi ishtirokchilari, qo'rboshilarning hayot yo'li faoliyati, taqdirini bilish, ularning unutib bo'lmas ijtimoiy-siyosiy qiyofalarini tiklash, ular haqidagi bor haqiqatni kelgusi avlodlarga yetkazish olimlarimiz, ziyolilarimizning burchidir.

Ozodlik va mustaqillik uchun qalbda Vatan tuyg'usi, qo'lda qurol bilan dushmanga qarshi beayov kurashgan, sarkarda va qo'rboshilar haqida tarixiy asarlar yaratilgan. Ulardan Rustam Shamsuddinovning „Jasoratga to'la hayot

---

[1] Mansurxo'ja Xo'jayev. Shemuhammadbek Qo'rboshi. T.: „Sharq" 2008 y, 6-bet

sohibi”, Ibrohim Karimning ,,.Madaminbek” asari, Q.Rajabov, M.Haydarov ,,Turkiston tarixi (1917-1924 y)” asari va ana shunday hayrli, ibratli ishga qo’l urganlardan biri Mansurxo’ja Ho’jayevdir.

Mansurxo’ja Xo’jayevning tariximizning achinarli, hasratli, armonli, lekin sharafli qahramonona sahifasini bitishga, bu ishga xissa qo’shishga jazm qilgani ham ibratlidir. Uning ,,Shermuhammadbek Qo’rboshi” nomli tarixiy asari buning yorqin misolidir.

Muallif voqelikning asl mohiyatini keng va atroflicha yoritgan. Asarda chuqur tahlillar, qiyoslashlar, o’xshatishlar mavjud. Muallif sovet zamonidan yaratilgan kitoblar, maqolalar, badiiy asarlar, harbiy sarkardalar xotiralari, gazeta va jurnallar, radio eshittirishlari, televideniya ko’rsatuvlari materiallarini qunt va sinchkovlik bilan o’rganib, xilma-xil qarashlar, talqinlarni tahlil qilib, ayni vatqda shaxsan o’z fikrlarini har jihatdan asoslab bera olgan. Ko’plab tarixiy adabiyotlar, badiiy asarlarda Shermuhammadbek haqidagi soxta, buzilgan, tuhmatdan iborat fikrlarni dalilu ashyolar, aqlan, mantiqan yondashuvlar vositasi ila rad qilib, o’zining tadqiqoti natijalarini sodda, lo’nda, xalq tilida mohirona bayon eta olgan.

# I-Bob. XX asr boshlaridagi istiqlolchilik harakatlari va uning tarixiy ahamiyati.

## 1.1. XX asr boshlaridagi istiqlolchilik harakatining mazmun mohiyati.

Tarixiy manbalarda Turkiston o'lkasi xalqlarining Sho'ro boschiniga qarshi milliy-ozodlik va istiqlol harakatining boshlanishi va uni davrlashtirish bo'yicha har xil fikrlar ilgari surildi. Jumladan, Sho'ro tarixshunosligida o'lkamiz xalqlarining ozodlik va milliy mustaqillik uchun kurashi davrini ko'r-ko'rona fuqarolar urushi davri, deb qaraladi. Tarixiy haqiqatga mutlaqo to'g'ri kelmaydigan Rossiyadagi fuqarolar urushi davridan aynan ko'chirib olindi va 1918-1920 yillar shunday belgilandi. Bu borada tarixiy voqealarga xolisona berilgan to'g'ri bahoni xorijda chop etilgan manbalardan topamiz. Jumladan, Boymirza Hayit „Bosmachilik: Turkistonda 1917-1934 yillardagi milliy kurash" kitobida o'lka xalqlarining milliy ozodlik va mustaqillik kurashi davrini to'g'ri va aniq belgilaydi. Uning fikricha, Turkiston xalqlarining milliy ozodlik jangovar kurashi 1934-yilning o'rtalariga qadar davom etgan. Bu katta davr ikki bosqichga bo'linadi: 1) 1918 yil fevraldan 1924 yilgacha; 2) 1924 yildan 1934 yilgacha[1].

Turkiston o'lkasi xalqlarining milliy ozodlik va istiqlol harakatining sabablari to'g'risida ham tarixiy manbalarda har xil fikrlar bayon etiladi. Ayniqsa sho'ro davrida chop etilgan adabiyotlarda o'lka xalqlarining milliy ozodlik va istiqlol harakatining mohiyati buzib, soxtalashtirib „bosmachilik" deb ataladi va sabablari bir yoqlama yoki juda toraytirilib ko'rsatiladi. Qonuniy savol tug'iladi: „Bosmachi" degan mudhish uydirma iborasi qanday yuzaga kelgan? Jamiki arxivlarda saqlanayotgan 1918-1919 yillarga oid hujjatlarda „bosmachilik", „bosmachilar" degan iboralar uchramaydi. „Talovchilar", „dushmanlar" degan iboralar bolsheviklar, sho'ro , harbiy tashkilotlari hujjatlarida ko'zga tashlanadi. 1918-1920 yillarda bo'lib o'tgan Turkiston Kompartiyasi I-V qurultoylari,

---
[1] N.Jo`rayev, Sh. Karimov. O`zbekiston tarixi T.: „Sharq" 2011, 100-bet

Turkiston Respublikasi Sho'rolarining I-V, IX syezdlari, shuningdek, boshqa hujjatlarda ham „bosmachilik" iborasi ishlatilmagan. „Bosmachilik harakati" doirasidagi qo'rboshilar, „bosmachilar" bilan bog'liq bo'lgan hujjatlarda ham bu ibora yo'q. Axir, istiqlol yo'lida milliy ozodlik uchun kurash olib borgan xalq milliy qahramonlari o'zlarini „bosmachilar" deb atalmaganlar-ku? Aksincha, ular o'zlarini „Musulmonobodlik jangchilar", "Vatan mudofachilari", "Turkiston ozodligi askarlari", „Millatni yurtni ajnabiy bosqinchilardan ozod etuvchilar", „milliy qo'shin jangchilari" deb atashgan. Mazkur harakat sardorlari o'z nomlariga „bek" so'zini qo'shib, Madaminbek, Shermuhammadbek, Isroilbek, Ibrohimbek, Parpibek deb ataganliklari ham bejiz emas. Qariyalar hanuz u davrni „beklar zamoni" edi deb ham eslashadi[1].

„Bosmachi" iborasi birinchi bo'lib bolshevik mafkurachilar qo'llanadilar. „Jizn` natsional`nosti" (Maoskva, 1920 yil iyun) jurnalidan „Bosmachilar fronti" maqolasi e`lon qilindi. Bu iborani 1921-yili 4 aprelda mazkur maqola muallifi Farg'ona qo'shinlari qo'mondoni D.E.Konovalov ishlatdi. P.Kushnev esa „bosmachi" so'zini qaroqchi ma`nosida qo'lladi („Krasnaya Zvezda". –M.: 1928. 1-son).

Xalqlar „dohiysi" I.V.Stalinning „bosmachilik" harakati 1918-1924 yillarda O'rta Osiyoda bir dushman, ixtilol va millatchi bo'lib, O'rta Osiyo respublikalarini Sovet Rossiyasidan ajratish va mustamlakachi sinf hokimiyatini yangidan qurish g'oyasi bilan boylar tomonidan boshqariluvchi siyosiy sho'ro tarixchilari tomonidan qabul qilinadi.

A.Zevelev, Yu.Polyakov, A.Chugunovlarning „Basmachestvo" ( „Bosmachilik") kitobida (Moskva, 1981) quyidagi satrlar bitilgan: „Slova basmach proisxodit ot tyusrkogo glagola „basmach" chto oznachayet „davit", „pritesnyat", „nasilovat". U narodov Sredney Azii ponyatiya „basmach"

---

[1] R.Shamsutdinov, Sh. Karimov Vatan tarixi, T.: „Sharq" 2010, 87-bet

oznachayet „naletchik”, „bandit”, „razboynik”, „nasilnik”. Bundan ko’rinadiki mualliflar „bosmoq” fe`lining birinchi mazmunini olmasdan, uni ongli ravishda tushirib qoldirganlar, asosiy e`tibor keyingi ma`nolarga qaratilgan. Bu tushunarli, albatta. Chunki bu ma`no ko’rsatilsa, o’quvchida o’z-o’zidan qonuniy savol tug’iladi: Xo’sh, „bosmachilar” kimlarning yerini bosib, tortib olgan ekan? O’z uyini, o’z yerini bosib olish mumkin emas-ku? „Bosmachilar” o’z yerini o’zlari hech qachon bosib olmagan, balki uni bosmachilardan ya`ni chorizm yoki sho’ro bosqinchilaridan himoya qilgan. RKP (b) Markaziy Komitetining 1922 yil 18-may qarorida „bosmachilik”ka qarshi harbiy tadbirlar bilan birga aholi orasida jiddiy targ’ibot tashkil etilishi ham muhim vazifa sifatida ko’rsatilgan. Jumladan, „Anvar Poshoning aholi orasida inglizlarning josusi va Sharq xalqlarining dushmani”, deb targ’ibot yuritish kerakligini aytilgan edi.

Ammo bu kabi g’ayriilmiy, tuhmat qarashlarning aksi o’laroq, haqiqatga yaqin fikrlar ham o’sha 20-yillardayoq bildirilgan edi. N.Kakurin, G.Kozlovskiy, L.Soloveychiklar „bosmachilik”ni „partizanlar harakati”, „xalq harakati”, „inqilobiy kurash”, „ozodlik kurashi” deb talqin etishgan. Hatto milliy qirg’in aybdorlaridan biri V.Kuybishev ham Buxorodagi „bosmachilik”ni ozodlik kurashi, deb aytgan edi. Harbiy arboblardan biri bo’lgan Vrachev 1922 yil qo’zg’aloni, xalq isyoni xarakteriga ega” deb ko’rsatgan. Harbiy komissar Sokolovning fikricha „Bosmachilik Turkiston xalqining begona hokimiyatga qarshi milliy isyonidir”.

Taniqli rahbar xodim G.Safarov asari „.bosmachilik” harakatini mustamlakachilarga qarshi qaratilgan milliy kurash deb atagan.

U „bosmachilik”ning kelib chiqish sabablariga to’xtalib: „.Bosmachilik” bir tomondan „Qo’qon muhtoriyati” tom-mor etilishi va undan keyin davom etgan mustamlakachilik noma`qulchiliklari oqibatida milliy mustaqillik uchun kurash zamirida, ikkinchi tomondan esa, iqtisodiy tushkunlik-ocharchilik, Farg’onada

paxtachilik xo'jaligining izdan chiqarilishi shu bilan birga o'zbek sart burjuaziyasining avalgi faravonligidan, mardikorlar, chorikorlar va qora ishchilar ommasining oddiy ish haqidan muhrum qilinishi asosida kelib chiqdi". Huddi shu kabi fikr xulosani H.Batmanov, G.Skalov, D.Zuyov, S.Ginzburg, T.Dervish va boshqalar ham qayd etadilar. Ushbu aytilgan fikrlarga qo'shimcha qilib, N.Batmanov: „Sho'ro hokimiyati bosmachilikni keltirib chiqardi", deydi.

Mahalliy millat vakillaridan Nizomiddin Xo'jayev, Turor Risqulov, Sanjarbek Asfandiyorov, Nazir To'raqulov, Rahim Inog'omoq va boshqalar ham masalaga to'g'ri baho berib, „bosmachilik"ning mohiyatiga to'g'ri yondashib va uni milliy ozodlik va istiqlol uchun kurash deb talqin etganlar va uning sabablarini xolisona va adolat tarozisida solib ko'rsatganlar. Shu boisdan ham ular 30-yillarda qatag'on qilichidan o'tkazilganlar.

Turkiston Kompartiyasining 1921 yil 19 avgustda bo'lgan VI qurultoyida Farg'ona masalasi ko'rildi. Unda asosiy maruzachi sifatida so'zlagan N.To'raqulov Farg'ona vodiysida „bosmachilik harakati" ning kelib chiqishi sabablarini tahlil qilishga harakat qildi. U jumladan bunday degan edi: „ ...hozirgi bosmachilik mahalliy hokimiyatning mustamlakachilik-bosmachilik ishining natijasi sifatida yuzaga keldi. Boshqa tomondan, bosmachilik faqat qator krizislar negizida tug'ilishi hal etishda, ekin maydonlarining qisqarishi natijasida va hakozolar, barcha bu inqiroz va iqtisodiy shart-sharoitlar asosida bosmachilik rivojlandi.

Bu sabablar bilan birgalikda tarixning ba`zi davrlarining rivojlanishi va kuchayishi yordam bergan bitta vaziyatni qayd qilmoq kerak. Bosmachilik, bu bizning tashkilotlarning siyosiy jihatdan uzoqni ko'ra bilmasligimizga Farg'ona fronti sharoitida mehnat majburiyatini o'tkazilishini misol bo'la oladi, qachonki oldindan hech qanday tashviqotsiz, hech qaydan hojat bo'lmagan holda mehnat majburiyatini shunday o'tkazdikki, mehnatga yaroqli shahar aholisining va dehqonlarning yarmi qishloqlardan qochib ketdi va ayni paytda bosmachilikka

xayrixohlik bildiruvchi maxsus muhit yaratildi. Shungacha borildiki, mehnat majburiyatiga yetarli miqdorda kishilarni to'plash uchun masjidlar o'rab olinib, odamlar tutildi va hokazo. Mana shu barcha umumiy maxsus sharoitlarda bosmachilik rivojlandi, kuchaydi va mustahkamlandi"[1].

Ayniqsa Sho'ro askarlarining „Qo'qon muhtoriyati"ni, Qo'qon shahri aholisini vahshiylarcha qirg'in qilishlari va xunrezliklari xalq ommasining ko'zini moshdek ochdi. „Bunday shavqatsiz qirg'inni bosqinchi, ular hech narsani tan olishmaydi, xudoga ham qarshi borishadi, degan gapralariga ishonch hosil qilishdi". Bu borada Madamin qo'rboshining hayot yo'li yorqin namunasidir. Shermuhammadbek qo'rboshi esa Turkiston aholisiga quyidagi chaqiriq bilan murojaat qilgan edi:

„Bolshevoylar aldaydilar va o'ldiradilar. Barcha davlatlar ularni tugatish uchun bolshevoylarga qarshi bormoqda va Turkistonga huquq berilganda edi, biz kurashmagan bo'lardik, balki Turkistonga o'z huquqi berilmas ekan, huquq va vijdonimiz uchun so'nggi tomchi qonimiz qolguncha bolshevoylarga qarshi kurash olib bormoqdamiz". Shermuhammadbekning fikricha „ ...bosmachilik" Umumturkiston istiqloli uchun bir yoqadan chiqargan vatanparvarlarning harakatidir.

Bu harakat-Temuriylarning, Ulug'beklarning, Navoiylarning yurtini Moskov tahdididan ozod etish demakdir".

Shermuhammadbekning ukasi Nurmuhammadbek qo'rboshi ta`rificha, „bosmachilar" „mudofai vatan, mudofai din, mudofai millat" shiori ostida harakat qildilar".

Turkiston tarixining bilimdoni, „bosmachilik urushi"ning, bevosita ishtirokchisi Z.V.To'g'on xulosalariga qaraganda „Bosmachilik" harakati

[1] M.Xo`jayev Shermuhammadbek Qo`rboshi T.: „Sharq" 2008, 34-bet

Turkistonda 1918-1923 yillar oxirida faol harakatlarga ega holda butun quvvatini o'ziga jalb etib o'rtaga chiqqan muazzam ozodlik harakatidir".

Q.Otaboyev „bosmachilik" deb nom olgan harakatni „Xalq isyoni" deb ataydi. Sho'ro hukumati, uning xulosasiga ko'ra, Turkistonda shunday iqtisodiy-siyosiy va milliy siyosat olib boradiki, „Natijada barcha dehqonlar va hunarmandlar sho'ro tuzumiga, sho'ro tartiblariga qarshi qo'zg'aldi va bosmachilar tarafiga o'tib ketdi, dastlabki davrlarda bosqinchilik ruhidagi bu harakat endilikda siyosiy mazmun kasb etdi. Shuni ta`kidlash lozimki, 1919-1920 yillarga kelib Farg'onada qaroqchilik emas, balki o'ziga xos Xalq isyoni vujudga keldi. To'rt yil mobaynida biz bu harakatga bergan noto'g'ri ta`rifimiz masalani hal etishda no'to'g'ri yondashuvlarga olib keldi. Va alal-oqibat to'rt yil davomida biz bu harakatning biror bir jihatini tugata olmadik.

Sho'ro hukumati toboro kuchayib bu qo'zg'alonga yuzma-yuz kelganida, bu qo'zg'alon yirik shaharlarda yanada mustahkamlandi va Sho'ro hukumatiga qarshi olib bordi".

Turkiston o'lkasi xalqlarining qizil saltanat mustamlakachiligi va rus shovinizmiga qarshi boshlangan milliy ozodlik va istiqlol uchun kurashining sabablari to'g'risida yozma manbalarda har xil qarash, g'oya va fikrlarga duch kelamiz. Albatta, mazkur masala bo'yicha qalam tebratuvchi har bir shaxs qaysi millatga, qaysi siyosiy guruh va g'oyaviy dunyoqarashga mansubligiga va kimning buyurtmasi va topshirig'ini bajarayotganligiga qarab ijod qiladi va fikrlaydi. Jumladan, P.Alekseyenko o'zining 1931 yilda chop ettirgan „Chto takoye bosmachestvo" kitobida bosmachilikning kelib chiqishiga asosiy sabab qilib paxtani musodara etish haqidagi Kolesov dekreti oqibati natijasi o'laroq yuzaga kelgan ishsizlik deb baholaydi. Bu fikr-xulosaga harbiy tarixchi D.Zuyev ham qo'shiladi. Ammo bu mualliflar milliy ozodlik va istiqlol urushining asl mohiyati va sababini ochishdan o'zlarini chetga oladilar. „O'zbekiston SSR

tarixi” (Uchinchi jild), „O’rta Osiyo Kommunistik tashkilotlarining tarixi” kitoblarida O’zbekiston va sho’ro davridagi O’zbekiston tarixiga oid barcha manbalarda, asosan, bitta g’oya ilgari suriladi: Angliya va Amerika singari imperialistik davlatlar O’rta Osiyoni o’z asoratiga solmoqchi edilar. Shu bois ular Turkistondagi aksiinqilobiy kuchlarni sho’rolarga qarshi ko’taradilar. „O’rta Osiyo Kommunistik tashkilotlarining tarixi”da quyidagi jumlalarni o’qiymiz: Chet el imperialistlarining g’alamisligi va madadi bilan ichki kontrevolyutsiya kuchlari 1918-yil yozida o’z faoliyatlarini aktivlashtirib, Sovet hokimiyatiga qarshi qat`iy hujumga o’tadilar. Turkistonda grajdanlar urushi avj oilb ketdi”. Huddi shu kabi fikrni tarixchi olim O’.Inoyatov ham takrorlaydi: „Butun mamlakatda bo’lgani singari Sovet Turkistonida ham Amerika va ayniqsa Angliya imperialistlari qo’llab-quvvatlagan ichki kotnravolyutsiya kuchlari sovet hokimiyatiga qarshi bosh ko’taradi”. Albatta, bunday fikr-xulosalar Turkistonda boshlanib ketgan o’lka mehnatkashlarining milliy ozodlik va istiqlol uchun kurashi mohiyatini ochib bera olmaydi[1].

Biz Sho’ro hukmronligi yillarida shu darajada manqurtlanib o’zligimizni yo’qotdikki, ba`zi bir ziyoli olimlarimiz O’zbekiston o’z milliy mustaqilligini qo’lga kiritib mustaqil davlat o’laroq shakllangandan keyin ham o’z ilmiy tadqiqot ishlarining nazariy-ilmiy metodologiyasiga marksizm-leninizmni asos qilib olib milliy mustamlakachi raqiblarimiz tegirmoniga suv quyib uni aylantirishda davom etdilar. Bu borada 1992 yilda O’zbekiston FA Tarix instituti Ilmiy Kengashida tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun „1917-1932 yillarda O’rta Osiyoda bosmachilikning horijiy tarixshunosligi (ingliz-amerika adabiyoti materiallarida)” mavzusida Xakimov Ruslan Ahmedovich tomonidan yoqlangan dissertatsiya (Ilmiy rahbar tarix fanlari doktori, professor Qodirxo’ja Foxilxo’jayev) xarakterlidir. Dissertant xorijiy tarixshunoslar Z.Validi, Kastane, Cho’qayev, Karrer Ankoss, Montey, Park, Risler va boshqalar asarlarida Oktyabr

---

[1] F.Qilichev Zulmatdan sadolar, T.: Adolat, 1994, 25-bet

to'ntarishidan so'ng Turkistonda Sho'ro hokimiyati o'rnatilgach mustamlakachilik tartib-qoidalarining faqat shakli o'zgarganligi, uning mazmun-mohiyati esa o'zgarmasdan eskicha saqlanib qolganligi haqidagi xulosalarni „tanqid" qiladi va noto'g'ri deb hisoblaydi. Muallif „Qizil qo'shinlar O'rta Osiyoni bosib olgach, bu hududda „bosmachilik" harakati vujudga kelganligini inkor etadi. U Oktyabr to'ntarishidan so'ng Qizil askarlarning bosqinchilik, talonchilik yurishlari oqibatida chorizm „O'rta Osiyoni ikkinchi marta bosib olganliklari" to'g'risidagi xorij tarixshunoslari fikrlariga qo'shilmasligini bayon etadi. „Hech qanday bosib olish bo'lgani yo'q" deb qat`iy fikr bildiradi, dissertant. Bu tarixchi olim xulosalariga ko'ra, „bosmachilik" harakati „aksilinqilobiy", „aksilsho'roviy" harakatdir. U milliy-ozodlik harakati yo'lboshchilari bo'lgan Ergash qo'rboshi, Madaminbek, Junaidxonlarni „Inqilobdan burungi stajga ega bo'lgan jinoyatchi", „siyosiy bandit"lar deb ta`riflaydi. Yuqoridagi keltirilgan fikr-xulosalar 1918-1934 yillar oralig'ida qariyb 16 yil davom etgan Turkiston o'lkasi xalqlarining kurashi sabablarini to'laqonli aks ettira olmaydi. Zero sovet askarlari tomonidan Qo'qon shahrining ishg'ol etilishi va Turkistonliklarning dushmandan qutilish istagi, Turkistonda ozodlik kurashining yangidan boshlanishiga yo'l ochib bergan edi.

Yana shu narsani aytmoqchimizki, Sho'ro Qizil qo'shinlari va xususan arman dashnoqlari Qo'qon shahridagi dahshatli qirg'inlar va yondirish-vayronagarchiliklar bilan cheklanib qolmadilar. Ular Qo'qon fojealari bahonasida butun Farg'ona vodiysini qabristonga va kultepaga aylantirmoqchi bo'ldilar. Bu yo'l bilan ular vodiydagi aholini ko'zini qo'rqitish, umuman bosh ko'tarolmaydigan qilib qo'ymoqchi edilar. Tarixchi olim Sh.Shomagdiyev bergan ma`lumotlarga qaraganda, qizil askarlar va dashnoqlar ana shu maqsadda 1918 yilning boshidanoq Farg'ona vodiysidagi 180 shaharni yondirib kulini ko'kka sovurdilar. Ana shu dahshatli qirg'in davridagina Marg'ilon shahrida 7000 ga yaqin, Andijon shahrida 6000, Namangan shahrida 2000, Bo'zqo'rg'on qa Qo'qon

qishloq atroflarida 4500 turkistonlik musulmonlar shahid bo'ldilar. Bu albatta o'lka xalqlarining mustamlakachi Sho'ro bosqinchilariga nisbatan qahr-g'azabi va nafratining mislsiz darajada kuchayishiga sabab bo'ldi[1].

Yuqoridagi fikr-xulosalarni umumlashtiradigan va tahlil qiladigan bo'lsak, Turkiston o'lkasi xalqlarining milliy ozodlik va mustaqillik uchun qurolli kurashga otlanishiga sabab bo'lgan asosiy omillar quyidagilardir:

*Birinchi va asosiy sabab.* Turkiston o'lkasi xalqlarining erk, ozodlik va milliy mustaqillik uchun kurashga tarixiy an`anaviy moyilligi, ota-bobolarimizning udumlariga sodiqligi, bosqinchi mustamlakachilarga nisbatan cheksiz nafrat, tiz cho'kib, bo'yin egib va qul bo'lib yashashdan ko'ra tik turib, kurashib jang maydonida mardonavor o'limni afzal ko'rishligi, Vatan va millatga nisbatan cheksiz hurmat, sadoqat va vatanparvarligidir.

*Ikkinchi sabab.* Chor Rossiyasining mustamlakachilik va shovinistik siyosatiga sodiq bo'lgan sho'ro hukumatining Turkiston o'lkasida olib borgan ulug' davlatchilik va o'lka xalqlarining insoniy qadr-qimmatini va g'ururini kamsituvchi siyosiy, iqtisodiy, ma`naviy, mafkuraviy va aksilmilliy genosid siyosatidir. Bolsheviklarning targ'ibot va tashviqotlariga aldanib dastlab ular tomoniga o'tgan tub yerli aholi vakillari Oktyabr to'ntarishidan so'ng o'z ko'zlari bilan sho'ro hukumati yurgizgan siyosatni ko'rib darxol undan yuz o'gira boshladilar. Jumladan Mustafo Cho'qayev 1917 yil 9-dekabrdayaq o'lkada hukm surayotgan sho'ro hukumatining yo'li begunoh qurbonlarning qoniga bulangan degan edi. „Chunki mazkur hokimiyat xunrezlikning oldini ola biladigan musulmonlarsiz o'rnatilgan. Hamkorlik haqidagi takliflarimiz isyondan so'ng ham ular tomondan rad etiladi".

[1] Q.Rajabov Farg`ona vodiysidagi istiqlolchilik harakati: mohiyati va asosiy rivojlanish bosqichlari (1918-1924 yillar) T.: 1994, 146-bet

1918 yil 9-mayda jadidlarning „Hurriyat" nomli gazetasida „Bolsheviklarimiz" deb nomlangan maqola e`lon qilindi. Unda bolsheviklarning barcha hiyla-nayranglari fosh etiladi: „Bolsheviklar" ish boshiga o'tib o'lg'on kunlarda: „Biz kichik millatlarg'a tamom hurriyat va istiqlol beramiz!" deb va`da qilgan bo'lsalar ham bu quruq so'zlari qog'oz ustindagina qoldi, bular hozircha hech bir millatning muhtoriyat va istiqloliyatini tasdiq etmadilar, balki bilaks shunday muhtoriyat va istiqloliyat e`lon etgan mamlakatlarga to'p va pulemyot bilan muqobala etdilar va etmoqdalar[1].

... Bolsheviklarning bu g'ayritabbiy tilaklari, buzuq g'arazlari hozircha Rossiyada bo'lg'on hech bir millat tarafindan qabul qilinmadi. Shuning uchundirki, bolsheviklar o'zlarig'a bo'ysunmay „sotsializm" maslagini qabul etmagan millatlar bilan urushmoqdalar. Musulmonlar orasida muxolifat solmoq uchun musulmon soldatlarini va musulmon ishchi, dehqonlarini ig'vo etdilar.... Musulmonlar boshsheviklarning buzuq maddaolarini anglab olib o'zlarini tortdilar, aldanmadilar".

...Toshkent shahar Dumasining so'nggi majlisida deputat Ibn Yamin Yonboyev Sho'ro hukumati haqida bunday yozgan edi: „Hozirda hokimiyat tan olingan demokratiyaligi dargumon. Ushbu hokimiyat musulmonlar nomidan gapirishi esa qip-qizil yolg'on... Mazkur hokimiyatning asl kuchi-to'p va pulemyotlardir, lekin biz, musulmonlar, bu kuchdan qo'rqmaymiz. Bizda o'zga kuch mavjudkim-ul kuch ruhimizdir. Tarix ushbu soxta hokimiyatning amalini qoralaydigan vaqt albatta kelajak!

*Uchinchi sabab*. Turkiston muhtoriyatining qonga botirilishi va Qo'qondagi dahshatli fojialardir.

---

[1] R.Rajabov O`zbekiston tarixi (1917-1993 yilar) T.: „O`qituvchi" 1994, 66-bet

Aslida bu fojialarni milliy ozodlik va mustaqillik uchun qurolli kurashning boshlanishiga sabab deb emas, balki bunday qonli muhorabaning boshlanishi uchun bir turtki, bahona deb qaramoq maqsadga muvofiqdir. Chunki Qo'qondagi voqealar ozodlikka, erkka va milliy mustaqillikka yillar davomida tashna bo'lgan Turkiston xalqlarining sabr kosasini haddan tashqari to'ldirib yubordi. Qo'qondagi sho'ro askarlarining miltiq, to'p va zambaraklardan otgan o'qlari o'lka xalqlarining tinch vositalar yordamida ozodlikka, muhtoriyatga va milliy mustaqillik kabi tushunchasi va g'oyalardan begona bo'lmagan va qizil vabodan qutilish istagi andakkina bo'lsada, qalbida jo'sh urgan millat vakillari qo'lga qurol olishdan boshqa yo'lni topa olmadilar. Buni istiqlol fidoyisi, ozodlik harakatining atoqli vakili va xalq lashkari sarkori Madaminbekning quyidagi so'zlari yorqin ifoda etadi: ,,Qo'qon muhtoriyati hukumati davrida men –Madaminbek musulmon qo'shinlariga yetarli darajada yordam bera olmadim. Men bolsheviklar hokimiyatini xalq uchun eng yaxshi va foydali hukumat deb o'ylagan edim. Lekin tez orada shunga ishonch hosil qilayapmanki, bolsheviklar boy, kambag'al va qashshoqlarni talashdan nariga o'tmas ekan. Shuning uchun ham men sho'rolar xizmatini tashlab,eski Marg'ilon qo'rboshisi (militsiya boshlig'i) lavozimidan ketdim".

*To'rtinchidan,* yuqoridagilardan kelib chiqadigan xulosa shuki, ,,bosmachilar" sho'ro tarixchilari, milliy muxoliflarimiz ta`kidlaganlari singari ,,kallakesarlar", ,,banditlar", ,,bosmachilar", ,,inqilobdan ilgari stajga ega bo'lgan o'g'rilar" emas edilar. Albatta ular orasida faqat o'z manfaatini o'ylagan, xalqni talon taroj qilgan ba`zi bir kimsalar va to'dalar bo'lganligi rost. ,,Sholi kurmaksiz bo'lmaydi" degan naql xalqda bekorga aytilmaganku. Biroq ,,bosmachilik" deya tavqi la`nat peshonasiga yopishtirilgan milliy-ozodlik jangchilarining aksariyat katta qismi Vatan va Millat ozodligi, baxt saodati yo'lida o'z jonini tikkan haqiqiy vatanparvar va millatparvar fidoiy mard jangchilar edilar. Bu fikrni quyidagi birgina arxiv xujjati orqali isbotlash yetarlidir: ,,Andijon deputatlari kengashi

Andijon uyezdi hududida harakat qilayotgan qaroqchi to'dalar boshliqlarining xatlarini bizga yubordi, -deyiladi, Skobelevdan 1918 yil 18-dekabrda TurkSIK, Kommunistlar qurultoyi, Komissarlar kengashi nomiga yuborilgan telegrammada,-Andijonlik tovarishlar! Biz sizlarga shuni ma`lum qilamizki, Sizlar Qo'g'oy qishlog'iga kelgansizlar va tinch aholiningi uylariga o't qo'ygansizlar. Bekor bu ishni qilgansizlar, agar bunday ish yana biror marta qaytarilsa u holda sizlarning stansiyalaringiz, zavod-uylaringizga ham xuddi shunday o't qo'yamiz. Agar sizlar urushishni xohlasangiz, biz bilan urishishingiz, xalq bilan emas. Biz barcha tinch aholini xoh u o'ris bo'lsin, xoh u yahudiy, xoh u arman bo'lsin, xoh u sart barchasi barobar deb hisoblaymiz. Kun bo'yi peshona terini to'kib, ishlaydigan kambag'al odamlarga bunday zarar keltirish insofdan emas. Urishish kerak bo'lsa, sizlar bilan mana biz urishamiz, tinch xalq esa sizlar bilan ham, bizlar bilan ham urushmaydi. Agar sizlar xalqqa qarshi urushni davom ettiraversangiz, u holda 3 kun ichida Toshkentdan to bu yergacha birorta ham butun narsangiz qolmaydi. Imzolavchilar: Madaminbek, Ergash Qo'rboshi, Xolxo'ja, Eshmatboyvachcha, Mahmonxo'ja, Fayozmaxsum".

Ana shu tariqa butun Turkiston o'lkasidagi barcha xalqlar: o'zbek, qirg'iz, qozoq, turkman, tojik, qoraqalpoqlar sho'ro istibdodiga qarshi ozodlik va milliy mustaqillik uchun qonli jangga otlanadilar. Shu boisdan bu kurashning harakatlantiruvchi kuchlari xalq ommasi-boylar, ruhoniylar, dehqonlar, kosiblar, ishchilar edilar[1].

---

[1] N.Jo`rayev, Sh. Karimov O`zbekiston tarixi T.: „Sharq" 2011, 108-110-betlar

## 1.2. Farg’ona vodiysidagi istiqlolchilik harakatlari va uning tarixiy ahamiyati.

1919 yil 22-oktyabrda istiqlol uchun kurash harakati kuchlarini tiklash va uni yanada mustahkamlash maqsadida Ergashtomda qo’rbboshilar qurultoyi chaqirildi. Qurultoyda Farg’ona Muvaqqat hukumatini tuzishga qaror qilindi. Hukumat boshlig’i va Bosh qo’mondonlikka Madaminbek saylandi. Hukumat boshlig’ining o’rinbosarligiga Monstrov nomzodi ko’rsatildi. General Muxanov harbiy vazir, advokat Nansberg Ichki ishlar vaziri, Hakimdon Azizxonov Moliya vaziri bo’ldi. Umumiy tarkibi 24 kishidan iborat boshlagan mazkur hukumatda 16 kishi tub yerli aholi vakillari bo’lsa, 8 kishi Yevropa millatlariga munsub xalqlarning vakillari edilar. Madaminbek shaxsida davlat va siyosiy arbobga hamda harbiy sarkardaga xos sifatlar mujassamlashgan edi. Madaminbek Farg’ona vodiysida Sho’ro hukumati organlariga muqobil bo’lgan siyosiy boshqarish tizimini joriy etdi. „U bizning rahbarlikdagi kachilim va xatolarimizdan mohirona fondalanildi, unda o’z „boshqarish apparati”, o’z tribunali, o’z „genshtabi” bor edi, u qonunlar chiqardi”,-deb ta`kidlagan edi uning dushmanlaridan Gromatovich. Faqat Ergash va Shermuhammadbekkina shunga o’zshash boshqarish tizimini joriy eta oldilar. Madaminbek askarlari tinch aholini talovchilar va bosqinchilarni o’zlari ushlab, qattiq jazolaydilar. „O’z oldiga Sho’ro hukumatini ag’darib tashlashni va Farg’ona muhtoriyatini tiklashni vazifa qilib qo’ygan Madaminbek mohir siyosatchi va tajribali tashkilotchi sifatlariga ega edi”,-deb ta`kidlanadi hujjatlarining birida. Farg’ona Muvaqqat hukumati harbiy va moddiy yordam so’rab Buxoro amirligi va Afg’oniston hukumatiga o’z vakillarini yubordi. Ammo ulardan hech qanday amaliy yordam ololmadi[1].

Qurultoyda Sho’rolarga qarshi kurashayotgan vatanparvar kuchlarning harakat birligini tashkil etishga katta e`tibor berildi. O’sha paytda Farg’ona vodiysida harakatda bo’lgan 150 ga yaqin istiqlolchi guruhlarni Madaminbek,

---

[1] N.Jo`rayev, Sh. Karimov O`zbekiston tarixi T.: „Sharq” 2011, 128-129-betlar

Shermuhammadbek, Xolxo'ja va katta Ergash boshchiligida to'rtta yirik guruh qilib birlashtirishga qaror qilindi. Bu ishda rus ofitserlari yaqindan amaliy yordamlar berdilar. Qo'rboshi otryadlarni qaytadan shakllantirish, markaziy rahbarlikni yo'lga qo'yish, harbiy komandir kadrlarni tarbiyalash va tayyorlash yuzasidan bir qator tadbirlar amalga oshirildi. Ammo bu tadbirlar kutilgan natijani bermadi, istiqlol uchun kurashuvchi barcha kuchlarni yagona markaz va jabhada birlashtirib kurashni yo'lga qo'yish imkoniyati bo'maydi. Bu ishning muvaffaqiyat qozonmaganligining sabablari ko'p bo'ladi, albatta. Eng asosiy sabab mustaqillik va milliy ozodlik uchun kurash olib borayotgan Turkistonlik vatanparvar kuchlar g'oyaviy-siyosiy va madaniy kurash saviyasining talab darajasida bo'lmaganligini edi. Bu hol milliy ozodlik kurashiga rahbarlik qilayotgan qo'rboshilar faoliyatida o'z aks sadosini topdi. Ular tajribali va nihoyat ayyor sho'rolar saltanati mustamlakachiligiga qarshi bir yoqadan bosh chiqarib kurashmoq uchun o'zaro umumiy til topa olmadilar. Yana maqsad yo'lida birlasha olmadilar. Ko'p hollarda qo'rboshilap birgalashib harakat qilish o'rniga o'z bilganlaricha va hech qanday dastursiz o'zlaricha alohida-alohida guruhlarga bo'linib, dushmanga qarshi kurashar edi. Bundan esa sho'rolar va Qizil askar kuchlari ustalik bilan foydalandilar. Ayni chog'da 1919-yilning kuz oylaridan boshlab Sho'ro hukumati istiqlolchi kuchlarga qarshi kurashda o'z taktik yo'lini o'zgartirdi, u manfiy va hiyla bilan ish olib bora boshladi. Bu borada sentyabr oyiga kelib Turkiston bilan Rossiya markazi o'rtasida uzilib qolgan aloqaning tiklanishi, Turkkomissiya ish faoliyatining boshlanishi va nihoyat M.Frunze boshchiligida Turkiston frontining tashkil etilishi hal qiluvchi o'rin tutdi. Bu davrda Sho'ro hukumati istiqlolchi kuchlarga qarshi iki jabha bo'ylab tazyiqni kuchaytirdi. Birinchisi ma`naviy tazyiq edi. Turkkomissiya rahbarligida Sho'ro o'z targ'ibotchisi va tashviqotlarini omma orasiga, jang qizib turgan hududlarga yubordi. Ular orqali xalq ommasining ongiga Sho'ro hukumati adolatli, xalqparvar hukumat, u mustamlaka osaratidagi

ezilgan millatlarning himoyachisi, bo'lib o'tgan dahshatli qirg`inlarda uning aybi yo'q, degan g'oya singdirildi[1].

Xalq milliy ozodlik va istiqlol uchun kurashining buyuk sardori Madaminbek o'ldirilgan bo'lsa-da, vatan mustaqilligi yo'lida u jon fido qilgan vatanparvarlikdan iborat qudratli to'lqin to'xtamadi, aksincha u yanada katta kuch bilan ko'tarildi. Bu davrda milliy ozodlik kurashining asosiy sardori va yalovdorlari Shermuhammadbek edi. Madaminbekning o'ldirilishi, Monstrov yo'l qo'ygan kamchiliklar va Muxanovning Sharqiy Turkistonga 20 ta rus ofitserlari bilan qochib ketishi oqibatida Farg'ona muvaqqat hukumati parchalanib ketdi. Ingliz tarixchisi Glende Frezer ma`lumotlariga qaraganda, bu davrda Farg'ona bolsheviklar 76 ming muntazam armiyaga ega edilar. Ana shu dahshatli kuch bilan Sho'ro hukumati Farg'ona vodiysida ko'tarilgan istiqlol harakatini zo'rlik bilan bostirmoqchi bo'ldi va xalq qahr-g'azabiga sababchi bo'lgan bir qator tadbirlarni amalga oshirdi. Masalan, M.Frunzening buyrug'iga asosan qizil askarlarni oziq-ovqat mahsulotlari yig'ishga kirishildi. Aholi bu davrda ochlikdan sillasi qurib qirilib ketayotgan edi. Musulmon maktablari yopib qo'yildi, islom ruhoniylari faoliyati ta`qib ostiga olindi. 19 yoshdan 35 yoshgacha bo'lgan aholini majburiy harbiy xizmatga olish to'g'risida qaror qabul qilindi. Bu tadbirlar mehnatkash ommasiningn\ sabr-kosasini yanada to'ldirdi, ular ommaviy sur`atda Shermuhammadbek lashkarlariga borib qo'shila boshlaydilar. 1920 yilning oktyabrida hatto muntazam Qozon polkidagi askarlardan 640 kishi qurol-yarog'lari bilan Shermuhammadbek va Xolxo'ja qo'rboshi tomoniga o'tib ketdi. Vatanim, millatim va ozodlik degan barcha sof vijdonli, imon-e`tiqodli vatanparvarlar Shermuhammadbek qanotidan joy va panoh topdilar[2].

1920 yil 3-mayda Shermuhammadbek tashabbusi bilan Oltiariq tumanidagi Qarnota qishlog'ida qo'rboshilar qurultoyi chaqirildi. Unda Turkiston muvaqqat

---

[1] R.Shamsutdinov, Sh.Karimov Vatan tarixi T.: 2010, 92-bet

[2] N.Jo`rayev, Sh. Karimov O`zbekiston tarixi T.: „Sharq" 2011, 130-bet

hukumati tuzildi. Hukumat boshlig'i va bosh qo'mondon-Amir ul-Muslimin lavozimiga Shermuhammadbek saylanadi. Boymirza Hayit ma`lumotlariga qaraganda, Shermuhammadbek boshqargan hukumatda lavozimlar quyidagicha taqsimlangan: siyosat raisi-Mullajon Qori, Shayx ul islom-Akbarjon Esxoni, hukumat bosh kotibi-Abdusalom qori, Moliya vaziri-Nosir Joni, Maxsus ishlar vaziri-Mullaxoji Niyoz.

Shermuhammadbek shaxsiga Zaki Validiy To'g'on yuksak baho bergan: ,, Shermuhammadbek,-xalqiga sodiq bir kishi bo'lgan. Uning dushmanlari ham unga baho berishda bor haqiqatni aytishga majbur bo'lgan. 1922 yilga oid tarixiy hujjatlardan birida shunday deyilgan: ,,Ko'rshermat (Shermuhammadbek)-millati sart (o'zbek) bo'lib barcha qo'rboshilarning eng g'ayratli va qat`iyatlisidir.

Shermuhammadbek milliy ozodlik va istiqlol harakatiga tasodifiy yoki kimlarningdir fatvosi, zo'rligi bilan kirmadi. Balki qalb amri, ona Vatanga, millatga nisbatan mehr-sadoqat, bosqinchi mustamlakachilarga nisbatan esa cheksiz nafrat uni vijdon amri bilan bu yo'lda ixtiyoriy suratda boshlab keldi.

Shermuhammadbek kuchlar teng bo'lmasa-da, bosqinchilarga qarshi ayovsiz va shavqatsiz jang qildi. Sho'ro hukumati Madaminbekni ,,bir yoqlik" qilgach, asosiy diqqat e`tiborini Xolxo'ja va Shermuhammadbek kuchlarini tor-mor keltirishga qaratadi. Ayniqsa bu ish 1920-yil may oyining o'rtalarida Farg'ona vodiysidagi M.Frunzening kelishi munosabati bilan yanada dahshatli tus oldi. Kurashning siyosiy va murosasizlik yo'lidan voz kechildi. ,,Bosmachilarga qarshi hal qiluvchi so'nggi kurash! Shiori bu davrning asosiy yo'nalishi edi. Farg'ona vodiysi ikkinchi marta harbiy holatda deb e`lon qilinadi. Vodiydagi butun fuqarolik boshqaruv ishlari avgust oyida o'tkazilgan harbiy Kengash ixtiyoriga topshirildi. Aslini olganda Farg'ona vodiysida zo'rlikka tayanuvchi harbiy diktatura o'rnatildi. Turkfront RHQ a`zosi P.Baranov Farg'ona vodiysining diktatorligi lavozimiga qo'yildi. M. Frunze qo'mondonligidagi

Turkiston fronti inqilobiy harbiy Kengash istiqlol harakatini qonundan tashqari deb e`lon qildi, uning rahbarlari bilan olib boriladigan har qanday muzokaralarni taqiqladi, ozodlik va milliy mustaqillik uchun kurashayotgan barcha kuchlarni qirib lashlash lozimligi to'g'risida dasturiy ko'rsatma berdi. Bu dastur „Qizil armiyaning bosmachilarni tugatishdagi roli" deb atalgan dasturiy to'plamga mos va xos edi. Unda biz quyidagi dahshatli jumlalarni o'qiymiz: „biz bosmachilardan faqat yerli aholini qirib tashlash orqaligina qutulamiz"[1].

1921 yil 9-martda Farg'ona viloyati inqilobiy qo'mitasining natijasida Farg'ona vodiysidagi bosmachilik harakati to'g'risida sho'ro qizil askarlarining Farg'ona qo'shinlari qo'mondoni Konovalov va Turlolarning ma`ruzalari tinglandi. Bu muhokamada kimlar ishtirok etdi? Mana ulardan ba`zilari: Biryushev, Pevzner, Konovalov, Turlo, Aliyev, Zaxarov, Kirzner va boshqalar. Konovalov o'z ma`razusida o'zini qo'yning og'zidan cho'p olmagan yuvosh kishidek ko'rsatdi, „bosmachilarga" qarshi kurash „muvaffaqiyatli" olib borilayotganligini ta`kidladi. Amaldagi, amalda u mahalliy millatlarning eng yovuz dushmani sifatida ish olib borgan.

1922 yil 18-iyulda Turkiston Markaziy Ijroiya qo'mitasining IV beshinchi majlisida Turkiston markaziy Ijroiya qo'mitasining a`zosi Qayg'isiz Otaboyevning ma`ruzasida bunday yovuzliklar ochib tashlandi. Konovalov bosmachilar to'dasining Bozorqo'rg'on qishlog'ida ekanligi to'g'risida ma`lumot oladi va o'zining uchinchi otliq otryadi bilan bu qishloq tomon yo'l oladi. U otryad harakati yo'nalishini bosmachilarga xabar qilishlari mumkin degan shubha bilan yo'l-yo'lakay ko'zga ko'ringan o'zbeklarni bitta qo'ymay qirib tashlaydi. Qishloq yaqinida Konovalov ,.bosmachilar"ning kichik bir guruhiga duch keladi va bir kecha kunduz jang qiladi. Bosmachilar qutulib qolishadi.

---

[1] M.Xo`jayev Shermuhammadbek Qo`rboshi T.: „Sharq" 2008, 257-bet

1921-1922 yillar Turkistondagi istiqlolchilik kuchlarga qarshi kurashda Sho'ro davlat mashinasini turli kuch hamda vositalarni ishga solgan edi. Bu vositalar asosan uch yo'nalishda olib borildi.

*Birinchidan,* Sho'ro tashviqot va targ'ibot apparati avvalo bu hukumatni dunyoda eng demokratik, adolatparvar, xalqparvar, yo'qsillar va ezilgan mehnatkashlar ommasining manfaatlarini himoyachisi qilib ko'rsatishga intildi. Shu maqsadda xalq ommasi o'rtasidagi o'z ayg'oqchi, yugurdaklari va tashviqotlarini ishga solib targ'ibot ishlarini olib bordi, varaqalar va e`lonlar tarqatdi. 1921-1922 yillarda bir qator dekretlar qabul qilib „amalda" o'zining „adolatparvarligini ko'rsatmoqchi" bo'ldi.

*Ikkinchidan,* Sho'ro hukumati 1919-1922 yillarda Turkistonni qamoqxonalar lageriga aylantirdi. Shu yillarda arxiv ma`lumotlariga qaraganda, har yil Turkistondagi axloq tuzatish kalonnalariga o'rta hisobda 4000ga qadar maxbus jo'natilgan. Ozodlikdan mahrum etilganlarni saqlash uchun tashkil etilgan Turkistondagi 40 ta qamoqxonalar odamlarni o'z bag'riga sig'dirolmay qolgan. Ortig'i bilan 3 ming mahbusga mo'ljallangan qamoqxonalarda 6000gacha tolei sho'r peshonalar saqlangan. Turk Respublika Mehnat muhofaza bo'limining boshlig'i Raginskiy qamoqxonalardagi bunday og'ir vaziyatdan chiqish uchun qamalganlardan 1500 kishini Markaziy Rossiya qamoqxonalariga jo'natishdek „antiqa" taklif bilan chiqadi.

Qamoqxonalarda hukm surgan aksilsanitariya ahvolini so'z bilan ifodalash qiyin bo'lgan. Jalolobod Inqilobiy Qo'mitasi raisi Karimov 1921 yil dekabr oyida Turkiston Respublikasi Yustisiya xalq Komissari nomiga yozgan xatida qamoqxonalarida inson toqat qila olmaydigan darajada og'ir vaziyat vujudga kelganini ma`lum qiladi. Uning ta`kidlashicha, 30 ta maxbus saqlanishi lozim bo'lgan xonalarda sanitariya ahvoli buzilgan.

Turkiston ASSR qamoqxonalarida og'ir vaziyatni shundan ham bilsa bo'ladiki, maxbuslar orasida har xil: vabo, tif, tuberklyoz va boshqa kasalliklar ommaviy sur`atda avj olib kelganligidan 1922-yil 20 fevralda RSFSR Xalq komissarlari Kengashi maxsus qaror qabul qilib, qamoqqa olinganlarni bir joydan ikkinchi joyga ko'chirishni olti haftaga to'xtatgan edi. Mazkur qarorga Syurupa imzo chekkan.

Bunday ajal va jahannam sirtmog'idan qutilish uchun maxbuslar iloji boricha qochib qutilish payida bo'lganlar. Turkiston Respublikasi qamoqxonalaridan 1921 yil iyun oyidan 1922 yilda 664 maxbus qamoqxonalardan qochgan bo'lsa, 1923 yilning o'n oyi-yanvardan oktyabrda qadar bu ko'rsatkich, 899 kishini tashkil etgan.

*Uchinchidan,* Sho'rolar o'zining asosiy diqqat-e`tiborini istiqlolchi kuchlarni qirib tugatishga qaratdi. Yuqorida zikr etilgan G.Frezer asarida 1922 yil iyunidan istiqlolchilarga qarshi kurashish uchun Rossiyadan uchta pok jo'natilganini, general Budyonniy avgust oyida Rossiyadan Andijonga kelib, o'z qo'shinlarini 3 qismga bo'lib, Qo'qon, Marg'ilon va Andijonda joylashtirganini, Andijon va O'zgan o'rtasidagi „bosmachilar"! joylashgan Gurunchmozorda Budenniy 50 kishini qamoqqa olganini, ko'pchilik „bosmachilar" Shermuhammadbekga qo'shilganini ta`kidlaydi[1].

1922 yil 10 iyunda boshlangan Sho'ro hukumatining eng ashaddiy dushmani Muhitdinbek qo'rboshini qo'lga olish operatsiyasi 22 oktyabrda yakunlandi. U Oltoy tog'ida bo'lgan jangda asir olindi va O'shda otib tashlandi.

Istiqlolchi kuchlarga bu tariqa ketma-ket berilgan zarbalar Shermuhammadbekning mavqeini ancha zaiflashtirdi. Shu boisdan u 1921 yil sentyabrda Zinoyev bilan sulh muzokaralarini boshlashga rozilik berdi.

---

[1] N.Jo`rayev, Sh. Karimov O`zbekiston tarixi T.: „Sharq" 2011, 148-149-betlar

Qizil askarlar Sho'ro hukumatining 1922-yil mart oyidagi istiqlolchi kuchlar bilan muzokaralar olib bormaslik va ularni majburan zo'rlik asosida taslim qilish to'g'risidagi buyrug'iga asosan iyundan boshlab yanada dahshatli hujumni kuchaytirdilar. Shermuhammadbek 1923-yilning boshlarida ukasi Nurmuhammadbek bilan birga bir guruh mujohidlarni yoniga olib Afg'onistonga o'tib ketishga majbur bo'ldi. U bir necha bor o'z vatanini mustamlakachilardan ozod qilish uchun harakat qildi. Jumladan, 1924 yilda 20 ming kishilik askar bilan Qashqar orqali Farg'ona vodiysiga o'tmoqchi bo'ldi. Shermuhammadbek Afg'onistondan Vaxsh daryosi orqali Sharqiy Buxoroga o'tishga intildi. Ammo bu urinishlarining barchasi besamar ketdi. Shundan so'ng u taqdirga tan bergan bo'lsa-da, doimo qalbida Vatanni ko'rish tuyg'usi bilan umrining oxirigacha yashab kurashdi. Shermuhammadbek Afg'onistonga Turkistonlik muhojirlarning „Vatanni ozod qilish" tashkilotiga rahbarlik qildi.

U 1945-yilga qadar Afg'onistonda, so'ngra Hindistonda, 1951-1959-yillarda Pokistonda, undan so'ng to umrining oxirigacha-1970-yil 10 martga qadar Turkiyaning Adana shahrida yashadi.

Sho'ro hukumati Shermuhammadbek Afg'onistonga olib ketgach, uni yomonotliq qilish niyati o'zining hayot sinovidan o'tgan qabih ish uslubini qo'llab istiqlol kurashchilarining nomlarini orqali mehnatkashlar, qolaversa, jahon xalqlari ommasining ongini zaharlashga harakat qildi. Ana shunday millat xoini chekist Og'abek Turkiyada chiqadigan „Yosh Turkiston" jurnalining 1930-yil 11-sonida Shermuhammadbekning milliy ozodlik va istiqlol uchun jasoratga to'la kurash yo'lini qoralab maqola yozdi, unda istiqlol fidoiysini Sho'rolarning GPU organlariga sotilgan bir shaxs sifatini talqin etdi[1].

[1] Q.Rajabov Farg`ona vodiysidagi istiqlolchilik harakati: mohiyati va asosiy rivojlanish bosqichlari (1918-1924 yillar) T.: 1994, 146-147-betlar

Xullas, 1920-1923 yillarda Farg'onada olib borilgan milliy-ozodlik va mustaqillik uchun kurash Turkiston xalqlarining ozodlik harakati tarixining eng yorqin sahifalaridir. Bu muqaddas mahorabada erk deb, ozodlik deb, milliy mustaqillik deb ming-minglab Vatan va millat fidoyilari o'z aziz jonini qurbon qildilar va ayni paytda ming-minglab mustamlakachi va bosqinchilarni ham yer tishlatdilar.

1923-yil 1-iyundan ushbu reja asosida Farg'ona vodiysidagi milliy-ozodlik va istiqlol harakatining uch muhim markazi Andijon, Namangan va Marg'ilon shaharlariga bir vaqtning o'zida qizil armiya kuchlarining hujumi boshlandi. 67 kunlik uzluksiz va ayovsiz jangu jadaldan va qirg'inlardan so'ng istiqlolchi kuchlarga katta zarba berildi. Shaharlar vayronaga aylandi, qishloqlar o'rnida yondirilgan kultepalar qoldi. Ammo har qancha dahshatli qirg'in, o't qo'yish va yondirishlar istiqlol fidoyilarining qaddini bukolmaydi, ular eng so'nggi imkoniyatiga qadar bosqinchi qizil askarlarga qarshi kurashni davom ettirdilar. Farg'ona vodiysida 1924 yildan 1934 yilning o`rtalariga qadar adolat tantanasi uchun o'z jonlarini tikkan vatanparvar jangchi qo'rboshilar Yormat Maxsum, Hoji Pansot Marg'ilon, Qo'qon va So'xda, Umar-Ali-Quvada, Turdibek-Isfarada, Jonibek qozi-Oloy tog'larida, Nosirxon To'ra Saidkamoljon o'g'li-Namanganda, Qorovul qo'rboshi-Oltiariqda va boshqalar muqaddas mahorabaning ilhomchilari va tashkilotchilari bo'ldilar.

1924-1926 yillar davomida Farg'ona vodiysida harakat qilgan istiqlolchi kuchlarga „Turkiston" nomi bilan tarixga kirgan aksionerlik jamiyati katta yordam bergan. Bu jamiyatning Markazi Toshkentda edi. Uning rahbari Saidnosir Mirjalilov va Tolibjon Musaboyev bo'lgan. Jamiyat 1924-yilda Toshkentda tashkil topgan va 1926 yilda tugatildi.Jamiyat o'z oldiga konsperativ nuqtai-nazardan savdo-sotiq ishlari bilan shug'ullanishni bosh maqsad qilib qo'ygan bo'lsa-da, amalda milliy-ozodlik uchun kurash olib borayotgan vatanparvarlarni moddiy tomondan qo'llab-quvvatlash masalasini o'z faoliyatining diqqat markaziga

qo'ygan. Ana shu nuqtai-nazardan e`tiborga olib jamiyat a`zolari istiqlol uchun kurashga o'z xissalarini moddiy tomondan qo'shishlari lozim edi. Toshkent viloyat xalq maorifi bo'limining xodimi Orifjon Hamid mulla jamiyatga a`zo bo'lgach 2500 so'm pul va 2000 ped dona bilan o'z hissasini qo'shgan. Huddi shuning singari Qayumxo'ja Orifxonov, Usmonxo'ja To'xtaxo'jayevlarning har biri 500 puddan bug'doy bergan edilar.

„Turkiston" jamiyatning vakillari Sho'ro va Kompartiya idoralarida yashirincha o'z faoliyatlarini olib borganlar. Ular Huritxo'ja Obidxo'jayev, G'ulom Ikromov va boshqalardir. Bundan tashqari jamiyat faoliyatida G'ulom Yusupov, Yoqubxo'ja Bahriddinxo'jayevlar alohda o'rinda bo'lganlar.

„Turkiston" jamiyatning Farg'ona vodiysi va umuman O'rta Osiyo hududida qo'mita va bo'limlari bo'lgan. Ayniqsa Qo'qon, Farg'ona, Andijon, Namangan, O'sh shaharlari, Xorazm, Samarqand va Buxoro viloyatlarida tashkilotlari faollikda oldingi safda bo'lganlar[1].

Xullas, 1918-1934 yillar davomida Vatan mustaqilligi va millat erkinligi uchun ozodlik kurashiga otlangan kurashiga otlangan milliy istiqlol fidoyilarining aziz va mo'tabar joylari jannatda bo'lsin. Ular ko'rsatgan jasorat va qahramonliklar hamisha mustaqil O'zbekiston fuqarolarining qalb to'rida yashaydi va ularni yangidan-yangi zafarlarga chorlaydi.

---

[1] N.Jo`rayev, Sh. Karimov O`zbekiston tarixi T.: „Sharq" 2011, 155-bet

# II-Боб: Amiral Muslimin Shermuhammadbek Farg'onadagi istiqlolchilik harakatining tashkilotchisi va rahbari

## 2.1.Shermuhammadbek-Turkiston o'lkasi musulmon qo'shinlari bosh qo'mondoni.

Madaminbek oq ruslar bilan ittifoq tuzdi-yu, o'zining sobiq ittifoqchilaridan ayrilayozdi. Xolxo'ja Eshondan boshqa qo'rboshilar Madaminbekning bu qilmishini ochiqdan-ochiq qoralamagan bo'lsalarda, o'rtaga sovuqchiliklar tusha boshlaydi. Unga bevosita o'z qo'li ostida jang qilib kelgan qo'rboshilar va qirg'iz qo'rboshilargina sodiq qoladi. Boshqa katta va kichik qo'rboshilar „Hozir Madaminbekning qo'shini musulmonlar va g'ayridinlardan iborat, binobarin, endi u tom ma`noda amiralmuslimin (musulmonlar amiri) bo'la olmaydi",-degan xulosaga keladilar.

1919 yil sentyabr oyida ular G'orbuvodo to'planib, Shermuhammadbekni amiralmuslimin etib saylaydilar. Shuningdek, qurultoyda milliy-ozodlik harakati oldida turgan vazifalar yana bir bora aniqlashtirib olindi, kelgusi janglar strategiyasi va taktikasi ko'rib chiqildi. Bu anjumanda, shuningdek Madaminbek sha`niga issiq-sovuq gaplar ham aytildi, kimdir uni ochiqdan-ochiq so'ksa, kimdir taassuf bildirdi, xayrixoxlari esa, bir oz so'z aytishga jur`at etolmay o'tirdilar[1].

Madaminbek va boshqa qo'rboshilar o'rtasiga tushgan sovuqchilik hozircha milliy-ozodlik kurashiga salbiy ta`sirini o'tkazmay turdi. Bir tomondan Madaminbek boshchiligidagi musulmon-rus qo'shini, bir tomondan Shermuhammadbek rahbarligidagi o'zbek qo'rboshilari, bir tomondan Muhiddinbek, Jonibek qozi kabi yirik qirg'iz qo'rboshilari qizillarni ko'z ochirmay, ketma-ket zafarli janglar olib bordilar.

---

[1] Mansurxo'ja Xo'jayev. Shemuhammadbek Qo'rboshi. T.: „Sharq" 2008 y, 123-bet

Bir necha bor harakat qilib sulhga erisha olmagan qizil qo'mondonlik g'azabdan o'zini qayerga qo'yishini bilmay terror harakatlarini boshlab yuborishadi. G'azab o'ti asosan Mermuhammadbek va Madaminbek kabi sardorlar, ularning tug'ilib o'sgan joylari, qarindoshlari hamda ozodlik kurashining ma`naviy markazi bo'lmish Qo'qonga qaratiladi. Qo'rboshilarning qarindosh-urug'lari qisman o'ldirilib, qisman qamoqqa olinib, surgun qilina boshlanadi, ularning mol-mulklari musodara qilinadi. Bu o'rinda qizil terrorchilar Madaminbek va Shermuhammadbekning Sharqiy Farg'onada janglar bilan band ekanligidan foydalanib qoldilar.

Bu voqealarni eshitgan Shermuhammadbek o'zining Marg'ilondan uzilib ketmaganligini bildirib qo'yish, hamda zo'rga kuchi yetmay, himoyasiz qarindosh-urug'lar, qo'ni-qo'shni, tanish-bilishlardan o'ch olishga kirishgan qizillarning yaxshilab adabini berib qo'yishga ahd qiladi. Marg'ilon atroflariga yashin tezligida qilinadigan hujum rejasi ikir-chikirlarigacha puxta o'ylab tuzilib chiqadi. Shu kunlarda Shermuhammad qo'shini adadi olti ming nafarga borar edi. Jang rejasiga muvofiq, mazkur olti ming jangchi quyidagi tartibda taqsimlanadi:

-1000 nafar yigit Dardoqbek qo'rboshi boshchiligida Marg'ilon uyezdida shimol tomondan;

-1000 nafar yigit Yusuf Polvon qo'rboshi boshchiligida g'arb tomondan;

-20000 nafar yigit Nurmuhammadbek boshchiligida Gorchakovo temir yo'l bekati tomonga;

-20000 nafar yigit Shermuhammadbek boshchiligida asosiy yo'nalish, ya`ni Marg'ilon tomon hujum qiladigan bo'ldilar.

1919 yil 10-yoki 11 oktyabr kuni qismlar o'zlariga buyurilgan joylarga yetib borgach, bir vaqtning o'zida jang boshlab, Marg'ilonni o'rab kela boshladilar. Qizillar qandaydir yo'l bilan qo'rboshilarning jangga kirish yo'llarini bilib olganlar

shekilli, shaharda katta qo'shin to'playdilar. Shuningdek, Namanganda turgan qismlarga ham ehtiyot shart Mirg'ilon sari yurish buyuriladi.

Jang shiddat bilan boshlanib, shu tarzda davom etadi. Bu jangda Shermuhammadbek turkiy xalqlar harbiy san`atidan meros qolgan bir usulini qo'llaydi: bir guruh otliq yigitlar dushmanga juda yaqin borib, qizg'in jangga kirishib ketadilar. Jang ayni qizigan paytda oldindan tayinlab qo'yilgan bir necha yigitlar „-esing bo'lsa, o'zingni qutqar", „qochmagan nomard" deb qichqirishib, otlarini orqaga burib, qochib qoldilar. Ularni ko'rgan boshqa yigitlar ham otlarini boshini burib, tartibsiz holda qocha boshladilar. Ularning orqasidan ponsodlar nomiga „qayt orqaga nomardlar, itday otib tashlayman" deb po'pisalar ham qilib qo'ydilar. Qizillar „bosmach qochdi, ura" degancha yigitlar ortidan changalzorga kirib keldilar. Bu yerda ularni Shermuhammadbek boshchiligidagi pistirma kutib turar edi. Pistirmadagilar qizillarni o'tkazib yuborib, atrofni o'rab tutday to'kib tashlaydilar. Qizil askarlar safi boshida qilich yalong'achlab kelayotgan komandir Shermuhammadbek bilan olishib halok bo'ladi.

Boshqa yo'nalishlarda ham qizillarga katta zarba beriladi. Jangdan so'ng barcha qismlar G'orbobo yaqinidagi bir mavzeda to'planadilar va tartibli ravishda o'z makonlari G'orboboga qaytadilar. 1919 yil 13-oktyabr kuni Namangandan yuborilgan katta harbiy qism Yozyovon cho'li orqali kelayotgan ma`lum bo'ladi. Shermuhammadbek o'z qo'shinini ikkiga bo'lib, bir qismini ehtiyot shart uchun G'arbuvo mudofaasiga qoldiradi. Ikkinchi qism bilan esa Yozyovon cho'li tomon yo'l oladi. Har ikki qo'shin Xonobod qishlog'i yaqinida to'qnash keldilar. Bu jang to'xtab-to'xtab uch kecha-kunduz davom etadi va nihoyat Shermuhammadbek qo'rboshi qo'l ostidagi ozodlik kuchlari g'alabasi bilan yakunlanadi[1]. Ayni paytda Qo'qon tomonda Islom Polvon, Oybola qo'rboshi va boshqalar, Andijonda Parpibek, Namanganda Rahmonquli va Amir qo'rboshi,

---

[1] Mansurxo'ja Xo'jayev. Shemuhammadbek Qo'rboshi. T.: „Sharq" 2008 y, 124-125 betlar

Aravonda Xolxo'ja Eshon, O'zgan va O'sh viloyatlarida qirg'iz qo'rboshilarining katta g'alabalarga erishganliklari haqida xabarlar tarqalib turdi.

Milliy ozodlik harakatining 1919 yildagi zafarli yurishlari sovetlarni qattiq larzaga solib qo'ydi. Bu yurish o'chog'i Farg'onada bo'lgan kuchli zilzila Turkiston zaminini qattiq silkitib, uning to'lqinlari Kreml minoralarini ham zirillatadi.

Leninga qilingan suiqasd uni jisman yo'q qila olmasada, to'shakka mixlab qo'yadi. Har kuni erta bilan muolaja va nonushtadan so'ng uning kotibasi Fotmeva ertalabki pochtani olib kelar edi. Pochta, gazetalar, maktublar, telegrammalardan iborat bo'lib, ularni Leninga olib kirishdan oldin Savnarkom tomonidan maxsus belgilangan kishi avval ko'z yugirtirib chiqardi va flotlardan kelgan noxush xabarlarni ichkariga kiritmagan. Chunki unga kuchli hayajonlanish mumkin bo'lmagan. Bu holni bilib qo'ygach undan pochtani yashirmaydigan bo'ladilar. Fotmeva pochta olib kirgach, unga bir ko'z yugirtirib olgach, „- Farg'onadan pochta kelmadimi?" deb alohida so'rab turgan. Farg'ona frontidagi ahvol Lenin uchun shu darajada ahamiyatli bo'lganki, u kutubxonada O'rta Osiyo, xususan Farg'ona tarixiga, turkiy xalqlar harbiy san`ati tarixiga oid kitoblarni o'qib turgan. Unda muayyan bir xalqning, muayyan bir mamlakatning tarixini yaxshi bilmay turib, u bilan muomala qilish, uni itoatda tutish qiyinligini juda yaxshi xis qilgan[2].

Leninning butun dunyoga mashhur aforizmga aylanib ketgan „Vostok-delo tonkoye" (Sharq masalasi o'ta nozik masaladir) degan jumlasi bor. Bazi tarixchilar Lenin bu gapni Uzoq Sharqdagi voqealar munosabati bilan aytganligini ta`kidlasalarda, u nafaqat Uzoq Sharqni, shu jumladan O'rta Osiyo, xususan Farg'onani ham nazarda tutgani mubolag'a emas.

---

[2] Shamsutdinov Rustam. „Bosmachilikni qanday baholash kerak". „Fan va turmush". 24-son 1995 y, 27-bet

1. Shu tariqa, 1919 yil 11 avgustda maxsus Turkiston fronti tashkil qilinadi va unga Mixail Vasilyevich Frunze qo'mondon etib tayinlanadi.

2. 1919 yil 22 noyabrda G'orbuvada navbatdagi qurultoy bo'lib o'tadi. Shermuhammadbek bu qurultoyni „Milliy kurash harbiy majlisi" deb atadi. Monstrov bilan hamkorlikda og'ir janglar olib borayotgan Madaminbek bu qurultoyning chaqirilishiga qarshi chiqadi va o'zi unda ishtirok etishdan bosh tortadi. Bosh tortmagan taqdirda ham fursati yo'q edi.

3. Qurultoyda ko'rilgan asosiy masalalardan biri qizil qo'mondonlik tomonidan sulh tuzish uchun boshlangan harakatlarga munosabat bildirish edi. Shermuhammadbek bu masala bo'yicha o'z fikrini bildirib, sulh haqida so'z bo'lishi mumkin emasligini, muqaddas kurashni oxirgi tomchi qongacha davom ettirish, sulhga rozi bo'lgan qo'rboshilar Vatan xoini sifatida la`natlanishi haqida so'zladi. Xolxo'ja Eshon uning so'zlarini qo'llab-quvvatladi. Boshqa qo'rboshilar fikr bildirmadilar. Sulh haqidagi har qanday takliflarni rad etish, biroq muzokaralardan bosh tortmaslik, ruslar bilan muzokaralar olib borish uchun qat`iyatli kishilardan iborat bir hay`at tuzish haqida qaror qabul qilindi.

4. Ikkinchi masala-yana o'sha, qo'rboshilar o'rtasidagi kelishmovchiliklar bo'lib, bu qurultoyda ham uni bartaraf etishning iloji yo'q edi.

5. Uchinchi masala- tashkiliy ishlardan iborat bo'ldi. Qo'rboshilarning harakat mintaqalari aniqlashtirildi va har bir mintaqa qo'mondonlari qayta tayinlandi. Bundan tashqari, quyida qarorlar qabul qilindi:

6. Qo'rboshilar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi hay`at tashkil etish

7. Qizil qo'mondonlik bilan muzokaralar olib boradigan hay`at tuzish

Qizillar targ'ibotiga qarshi kurashadigan va aksil targ'ibot yuritadigan guruh tashkil etish

Qurol—yarog' topish ishlarini yo'lga qo'yish

Yangi hukumat tuzish uchun tayyorgarlik ishlariga kirishish 1919 yilning qish arafasida qizil qo'mondonlik milliy-ozodlik kuchlariga hal qiluvchi zarba berish rejasini ishlab chiqadi. Marg'ilon va Farg'ona (sobiq Skobelevga) vodiyning har tarafidan va Toshkentdan yangi kchlar olib kelina boshlandi. O'z ayg'oqchilari vositasida bundan xabar topgan Shermuhammadbek qo'shinini saqlab qolish maqsadida vaqtincha tog'larga chekinishga qaror qiladi. Oloyning ostonasi bo'lmish G'ulcha shaharchasida kichik ber garnizon bor edi. Shermuhammadbek bilan Xolxo'ja Eshon shu tomonga qarab yo'l oladilar. Gornizon boshlig'i kuch qo'rboshilar tomonida ekanligini anglab, jangsiz taslim bo'ladi. Shu tufayli uni va jangchilarini asir olmay, qo'yib yuboradilar[1]. Bu yerda bir necha kun turilgach, Xolxo'ja Eshon Novqatga yo'l oladi. G'orbuvodan G'ulgagacha bo'lgan yo'l ustiga qo'yilgan xabarchilar, qizil qo'shin Shermuhammadbekni ta`qib etib, izma-iz kelayotganini ma`lum qiladilar. Shermuhammadbek mudofaaga hozirlik ko'ra boshlaydilar. Qizillar uni uch tomondan o'rab oladilar. Faqat sharq tomon-Oloy yo'ligina ochiq qolgan edi. Bir necha kunlik jangdan so'ng qizillar tobora qurshovni siqib kela boshlaydilar. Buning ustiga, bu yerlar tog' etagi bo'lgani uchun qalin qor bilan qoplangan edi.

Shermuhammadbek: „-kofirlar o'qidan o'lgandan ko'ra tog'da muzlab qolganimiz afzalroq. Nima bo'lsa ham xudodan ko'rdik", deb Terakdovon tomon chekinishga buyruq beradi. Yog'ib turgan qor ostida dovon sari yuradilar. Qizillar ham izma-iz quva boshlaydi. Dam jang qilib, dam ilgari yurib, baland tog'lar boshlanadigan joydagi bo'sag'a degan qishloqqa yetib keladilar. Bu yerning aholisidan qirqtacha qo'tos, qorkurak va yo'l ko'rsatuvchi olib toqqa chiqib

[1] Narzulla Jo'rayev, Shodi Karimov. „O'zbekiston tarixi" T.: „Sharq" 2011 y, 125 bet

ketdilar. Azaliy tog' hayvoni bo'lgan qo'toslar ko'kragigacha qorga botib, otlar uchun yo'l ochib borgan. Bunday qiyin sharoitda bir qancha otlar sovuqdan o'ladi, odamlarning oyoq-qo'llarini sovuq uradi, oziq-ovqatlari tamom bo'lgach otlarini so'yib yeyishga to'g'ri kelgan. Nihoyat, yo'lboshchilardan biri dara yo'lini topishga muvaffaq bo'ladi.

„Bosmachilar qor bo'roni ostida qolib, qirilib ketgandir" deb o'ylagan qizil askarlar orqasiga qaytib ketadi. Tog'ma-tog' yurgan Shermuhammadbek yigitlari kichikroq Oloy kentiga-Oloy vodiysi markaziga yetib olib, bu yerda dam olib o'zlariga kelib olgach shahidlarni shu yerga dafn etib Farg'onaga qaytishga hozirlik ko'radi[1].

1. Shermuhammadbek Oloydan qaytayotganidayoq qurultoy o'tkazgan edi. Bu qurultoyda quyidagi qarorlar qabul qilingan:
2. Bolsheviklarga qarshi yangi hujum harakatini tashkil etish
3. Xalqqa qo'rboshilar ahvolini yaxshi ekanliklarini bildirgan holda undan askar, osh, oziq-ovqat va kiyim kechak yordami so'rash
4. Endi o'z kuchini yo'qotgan Madaminbek Monetrov hukumatining o'rniga markazi vaqtincha G'orbuvoda bo'ladigan yangi hukumat tuzish uchun harakat va maslahat boshlash hamda kechi bilan may oyi boshida tayyorgarliklarni tugallash, tezlik bilan G'orbuvoga o'rnashib olish.

Qurultoydagi qarorlar vaqtni o'tkazmay amalga oshirilishi zarur edi. Bol`sheviklarning askar to'plash harakatiga qarshi tezlik bilan chora ko'rish, yigirma kun ichida ko'zga ko'rinadigan muvaffaqiyatlariga erishish vazifasi qilib qo'yilgan edi. Shuningdek ikkilanib turgan, arazlagan va ehtiyotkor bo'lib qolgan

---

[1] Mansurxo'ja Xo'jayev. Shemuhammadbek Qo'rboshi. T.: „Sharq" 2008 y, 132-133 betlar

qo'rboshilar bilan uchrashib, ularga zarur yordam ko'rsatish, shu yo'llar bilan muvaffaqiyatga zamin tayyorlash kerak edi.

Shermuhammadbek mazkur qurultoy qarorlarini amalga oshirish, oziq-ovqat, kiyim-kechak, qurol-yarog' masalalarini hal etish, yangi kelgan hamda sho'ro qo'mondonligidan qochib o'tgan yigitlarni qurollantirish, qismlarga bo'lish, shuningdek, yangi hukumat tuzish uchun maslahatlar bilan band bo'lib turgan bir paytda O'ratepada jang olib borayotgan Barotbek (Ali Bodomchi asarida „Bo'g'otabek" shaklida yozilgan) qo'rboshidan yordam so'rab chopar keladi. Ma`lum bo'lishicha, Xo'jand va O'ratepa garnizonlaridan chiqib kelgan qismlar Barotbekka og'ir zarba beradilar[1]. Shermuhammadbek darhol Hotambek qo'rboshi boshchiligida yetti yuz yigitni O'ratepaga safarbar etadi. Yigitlar hal qiluvchi jang paytida yetib borib qizil armiya askarlarining katta qismini qirib tashlashadi. Tirik qolganlari Xo'jand tomonga qochib qutiladilar.

Shuningdek, yangidan kuch to'plab, sho'ro hokimiyatiga qarshi kurashni qayta boshlagan Rahmonquli qo'rboshi ham tang ahvolga tushib qolgan paytda yordam so'rab murojaat qiladi. Shermuhammadbek unga yordam uchun Boltabek qo'rboshi boshchiligida 1600 yigit yuboradi. Yaqin bir oyga cho'zilgan jang harakatlari natijasida qizil askarlar Namanganga chekinishga majbur bo'ladilar[2].

Ashobaga-Rahmonquliga yordam yuborgach, Shermuhammadbek yangi hukumat haqida qo'rboshilar bilan aloqani tiklash maqsadida O'sh safariga chiqadi. O'zgan yaqinidagi Qorasho'ra degan joyda bu hudud, ya`ni Sharqiy Farg'onaning eng yirik hududi qo'rboshini Jonibek qozi bilan uchrashib, hukumat

---

[1] R.Shamsutdinov, Sh.Karimov, Vatan tarixi. T.: „Sharq" 2010 yil, 126-127 betlar

[2] Mansurxo'ja Xo'jayev. Shemuhammadbek Qo'rboshi. T.: „Sharq" 2008 y, 174 bet

tuzish masalasida uning roziligini oladi. Shundan so'ng Novqatga-Muhiddinbek qo'rboshi qarorgohiga yo'l oladi[1].

1. Shermuhammadbek Muhiddinbek bilan gaplashib oladi. Sirasini aytganda, Muhiddinbek Madaminbekning yaqin do'sti bo'lib, uni nihoyatda hurmat qilgan. So'nggi paytlarda Shermuhammadbek bilan Madaminbek oralaridan olamushuk o'tib qolgach, Muhiddinbek o'zini Shermuhammadbekdan bir oz tortib yurgan. Oradagi munosabatlarni yaxshilash maqsadida Shermuhammadbek ukasi Nurmuhammadbekka Muhiddinbekning qizini so'raydi. Muhiddinbek bajonidil rozi bo'ladi. 1920 yil parel oyida Shermuhammadbek barcha taniqli qo'rboshilar hamda Vatan ozodligi yo'lida yashirin kurash olib borayotgan, markazi Toshkentda bo'lgan „Turkiston Milliy ittifoqi" tashkiloti hamda, vodiyning mo'`tabar shaxslari bilan muloqotlar olib boradilar. Kurashning shu qisqa davri uchun xulosalar chiqaradi. Mazkur xulosa va natijalar Shermuhammadbekning xotira kitobiga quyidagi tarzda tushirilgan:
2. G'orbuvoda mustahkam qarorgoh vujudga keltirildi.
3. Rahmonqulining qaytadan kurashga kirishishi bilan Sirdaryo bo'yi jabhasi yana faol holga keldi. Xususan, Toshkent va Namangan orqali keladigan bolshevik kuchlari oldida haqiqiy to'siq qo'yildi.
4. Xolxo'ja Eshon o'z tashkilotidagi ba`zi bir anglashilmovchiliklarga qaramasdan vaziyatni nazorat qilib turibdi va o'tgan yilga qaraganda ham og'ir jang olib bormoqdalar.
5. Ballibek qo'rboshining otryadida qaytadan jonlanish boshlandi.
6. Shermuhammadbekning Muhiddinbek va Jonibek qozini shaxsan o'zi ziyorat qilishi va ularning fikrlarini eshittirish bu ikki mujohidning ruhlarini

[1] R.Shamsutdinov, Sh.Karimov, Vatan tarixi. T.: „Sharq" 2010 yil, 129 bet

ko’tarib yubordi. Ularning Shermuhammadbekka bo’lgan ishonchi yanada ortdi.

7. Muhiddinbek va Jonibek qozining kurashi davom ettirish haqidagi va`dalaridan keyin Oloy tog’lari hududi xavfsiz bo’lib qoldi.
8. Qo’qonda milliy-ozodlik harakatining qaytadan tug’ilishi kutilmoqda.
9. Buxoro amirligining muxolif vaziyatda turishga qaramay 1919 yilning dekabr oyida Afg’oniston millatparvarlari bilan o’rnatilgan aloqalar shu ikki mamlakat orqali tashqi dunyo bilan bog’lanish imkonini berdi. Bu-istiqlol e`lon qilgan da`vat uchun muhim ahamiyatga egadir.
10. Mart-aprel oyi vujudga kelgan „Qo’rboshilar Buhroni”dan butunlay bo’lmasada, katta miqyosda hatlab o’tildi.

Nihoyat, 1920 yil 2 may kuni G’orbuvoda katta qurultoy chaqiriladi. Qurultoyda yangi muvaqqat hukumat masalasi ko’riladi. 3 may kuni Turkiston muvaqqat hukumati tuzilganligi rasman e`lon qilinadi, boshqaruv, harbiy va boshqa zaruriy tashkil etiladi. Yangi hukumat tuzilganligi haqidagi xabar Farg’ona vodiysining har tomoniga choparlar vositasida bildiriladi.

Shu o’rinda yana bir narsani ta`kidlab o’tishimiz joizki, mazkur hukumat tarkibi haqida manbalarda tafovut bor. Ali Bodomchi asarida ko’rsatib o’tilgan tarkib Boymirza Hayit asarlarida keltirilgan tarkibdan farq qiladi. Har ikki tomon ham o’z ma`lumotlarini ishonchli manbalardan olganliklariga shubha yo’q.

Ali Bodomchi asarida „Markazi G’orbuvo bo’lmish milliy hukumat quyidagi zotlardan tashkil topdi”.

1. Shermuhammadbek-Bosh qo’mondon, hukumat raisi, amiri lashkari islom
2. Nurmuhamadbek-Harbiy qismlar mufattishi, hukumat raisining vakili

3. Mullajon Qori-Ichki ishlar vakili, militsiya mudiri
4. Akbar Eshon-Shayxulislom
5. Abdusalom Qori-Bosh kotib, Mirzaboshi
6. Nazirjon-Moliya vakili
7. Mulla Hoji Niyoziy-voqea navis
8. Toshmuhammadbek-milliy hukumatning Afg'onistondagi vakili

Shuningdek, o'n ikki kishidan iborat bo'lgan maslahatchilar hay`ati ham saylandi. Bundan tashqari ozod qilingan va qilinajak mintaqa, qishloq va kentlarga qozi, amir va ellikboshilar tayinlandi[1].

Shermuhammadbek boshchiligidagi istiqlolchi kuchlar umuman 1920-yil oxirlariga kelib kattagina muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritadilar. Ular Marg'ilon, Namangan, Andijon va boshqa shaharlarni qizil askarlardan qaytarib oladilar. Glende Frezer bergan ma`lumotlarga qaraganda saroydan quvilgan Amir Olimxon Shermuhammadbekka yordam so'rab murojaat ham qilgan. Shermuhammadbek katta kuch bilan Amir olimxonga ham yordam bergan. U o'z ukasi Ro'zimuhammad boshchiligida 500 askarni Buxoroga jo'natgan. O'zi esa shaxsan Amir Olimxon bilan uchrashish uchun Dushanbega borgan. 1920 yilning oxirlari, 1921-yilning boshlarida sovetlar hukumati Shermuhammadbekka qarshi juda katta kuchlarni tashlaydi. Bu kuchlarga 8-otliq brigada qo'shinlari komandiri Yu.A.Melkumov boshchilik qildi. Ushbu jangdan so'ng oqibatda Parpibek qo'rboshi boshchiligidagi vatanparvarlar Qo'qonqishloq, Omoncho'ra, Bozorqo'rg'on hududlarini tashlab chiqishga majbur bo'ldilar. Jang maydoni Jalolobod va Sizoq hududlariga ko'chirildi. Bu yerda Parpibek qo'rboshi

---

[1] Mansurxo'ja Xo'jayev. Shemuhammadbek Qo'rboshi. T.: „Sharq" 2008 y, 176 bet

qo'shinlari Turkiston 2-o'qchidiviziyasi bilan bo'lgan janglarda katta talofat ko'rdi, ko'plari asir olindi. Parpibek qo'rboshining o'zi bu jangda og'ir yarador bo'ladi va 1921 yil 9 aprelda vafot etadi. Bu Shermuhammadbek uchun katta yo'qotish edi. Shu 1921 yilda Xolxo'ja qo'rboshi Oloy tog' tizmalari atrofida qor ko'chkisi oqibatida halok bo'ladi.

Albatta bunday yo'qotishlar qo'rboshilarning ba`zi bir vakillariga o'z salbiy ta`sirini ko'rsatadi. 31 yanvarda Akbarali va mahkamhoji qo'rboshilar o'zlarining 2600 askarlari bilan sovetlar tomoniga o'tib ketadilar. Shu yili Boytuman qo'rboshi ham o'z ixtiyori bilan sovetlarga taslim bo'ldi. Ammo qizil askarlarning Farg'ona guruhi qo'mondoni Zinovevning buyrug'iga asosan Boytuman qo'rboshi va uning 40 kishidan iborat yigitlari qirib tashlanadi.

G.Frezer ma`lumotlariga ko'ra 1922 yil iyunida istiqlolchilarga qarshi kurashish uchun Rossiyadan uchta polk jo'natilgani, general Budyoniy avgust oyida Rossiyadan Andijonga kelib, o'z qo'shinlarini 3 qismga bo'lib, Qo'qon, Marg'ilon va Andijonga joylashtirganini, Andijon va O'zgan o'rtasidagi „bosmachilar" joylashgan Gurunchmozorda Budyoniy 50 kishini qamoqqa olganini, ko'pchilik „Bosmachilar" Shermuhammadga qo'shilganini ta`kidlaydi.

Istiqlolchi kuchlarga ketma-ket berilgan zarbalar Shermuhammadbekning mavqeini albatta ancha zaiflashtiradi. Shu boisdan u 1921 yil sentyabrda Zinovev bilan sulh muzokaralarini boshlashga rozilik beradi. Shermuhammadbekka barcha qurollarni topshirib, so'zsiz taslim bo'lish sharti qo'yiladi. U bunday shartni qabul qilmaydi. Shundan so'ng u o'z o'rniga bosh qo'mondon qilib qirg'iz qo'rboshisi Muhiddinbekni qoldirib, Sharqiy Buxoroga yo'l oladi. Uning bundan ko'zlagan maqsadi Sharqiy Buxoro hududida Anvar Poshsho boshchiligida ozodlik harakati va istiqlolchi kuchlar bilan bog'lanish, umumiy dastur birligi

asosida kelishishga erishish va Afg'onistondan yordam olish imkoniyatini izlash edi[1].

Shermuhammadbek ketgach Muhitdinbek musulmon lashkarlari safida bir qator o'zgarishlar qiladi, o'ziga yoqmagan qo'mondonlarni o'zgartiradi, ularning o'rniga o'z odamlarini qo'yadi. Natijada, Shermuhammadbek katta mehnatlar evaziga tuzib shakllantirgan mujohidlar tizimida tashkiliy tarqoqlik va bosh-boshdoqlik boshlanadi. Oqibatda Muhitdinbekning o'zi ham yuqorida ta`kidlangani singari o'z yog'iga qovuriladi. 1922 yil 22-oktyabrda sovetlar Muhitdinbek qo'rboshini Oloy tog'ida bo'lgan jangda qo'lga olib otib tashlaydi[2].

Shermuhammadbek Buxorodan 1922 yil mart oyida qaytib keladi. U oldingi kuchlarni yagona bir markazga birlashtira olmaydi. Aprel oyida „Turkiston muvaqqat hukumati"ning rahbari sifatida Samarqandda bo'lib o'tgan Turkiston musulmonlari Kongressida qatnashadi. Unda turli muzofotlardan kelgan qo'rboshilar ishtirok etadilar. Kongress qatnashchilari Rossiya hukumati oldiga bir qator shartlar bilan ultimatum qo'yadi. Unda sovetlar hukumati 2 oy ichida Turkistondan chiqib ketishlari kerakligi ta`kidlanadi. Ana shu muddat davomida Turkiston hukumati ruslardan tozalanmasa, Turkiston hukumati Moskva bilan diplomatik aloqalarni uzadi, Turkiston bilan Rossiya o'rtasidagi jang adolat qaror topguncha davom etaveradi, deyiladi[1].

Qizil askarlar sovet hukumatining 1922 yil, mart oyidagi istiqlolchi kuchlar bilan muzokaralar olib bormaslik va ularni majburan zo'rlik asosida taslim qilish to'g'risidagi buyrug'iga asosan iyundan boshlab yanada dahshatli hujumini kuchaytiradilar. Shermuhammadbek 1923-yil ukasi Nurmuhammadbek bilan bir guruh mujohidlarni yoniga olib, Afg'onistonga o'tib ketishga majbur bo'ladi. U bir

---

[1] R.Shamsutdinov, Sh.Karimov, Vatan tarixi. T.: „Sharq" 2010 yil, 132-133 betlar

[2] O'sha joyda

[1] Narzulla Jo'rayev, Shodi Karimov. „O'zbekiston tarixi" T.: „Sharq" 2011 y, 150-bet

necha bor o'z vatanini mustamlakachilardan ozod qilish uchun harakat qiladi. Jumladan, 1924-yilda 20 ming kishilik askar bilan Qashqar orqali Farg'ona vodiysiga o'tmoqchi bo'ladi. Ikkinchi urinish 1929-yilda bo'lgan edi. O'shanda Shermuhammadbek Afg'onistondan Vaxsh daryosi orqali Sharqiy Buxoroga o'tishga intiladi. Ammo urinishlarning barchasi besamar ketadi. Shundan so'ng u taqdirga tan bergan bo'lsada, doimo qalbida vatanni ozod ko'rish tuyg'usi bilan umrining oxirigacha yashab kurashadi[2].

[2] O'sha joyda

## 2.2. Shermuhammadbek va Anvar Posho o'rtasidagi munosabatlar

Bir vaqtlar sharqning katta qismini, Bolqonni to'lasicha zabt etgan Usmoniy turk sultonligi Ovrupani tiz cho'ktirgan buyuk saltanat edi. Biroq, XVIII-asrga kelib, omad bu buyuk davlatdan yuz o'girdi. Ovrupa, ayniqsa Buyuk Britaniya va Rossiyaning kuchayib borishi bilan sultonlik tartibidagi mamlakatlar birin-ketin uning qo'l ostidan chiqib keta boshlaydi. Mamlakatning zaiflashishi Usmonli turk sultonlari sulolasining salohiyatsizligi natijasi deb tushungan. Bir qancha harbiylar, davlat arboblari va ziyolilar „Milliy ittifoq" firqasigacha birlashib, XX asr boshlarida davlat to'ntarishi o'tkazadilar. Biroq, bu to'ntarish ham hech qanday natija bermaydi: bu paytga kelib, butun Ovrupa va Rossiya Turkiyaga qarshi oyoqqa turgan edi. Nihoyat, Mustafo Kamol Posho hokimiyatni o'z qo'liga olgachgina Ulug' Porta (turklar o'z davlatlarini ko'pincha shu nom bilan atar edilar), Ovrupa istilosidan qutilib qoldi. Mustafo Kamol Posho davlat tepasiga kelgach, sobiq davlat arboblarining ko'pginasi xorijga chiqib ketishga majbur bo'ladilar. Ular ichida sobiq harbiy vazir, Turk sultoni va musulmonlar xalifasi Abduhamid- Iining kuyovi bo'lganligi uchun „Domodi Xalifat-ul muslimin" unvonini olgan Anvar Posho („Posho"-yirik davlat arboblari, harbiylar va zadogonlarga beriladigan unvon) ham bor edi. Anvar Posho ko'plab Ovrupa mamlakatlarida bo'lib, 1920 yilda Moskvaga keladi, Sharq xalqlarining Boku qurultoyida ishtirok etadi va 1921 yil oktyabr oyida Buxoroga keladi. Bu yerda u Buxoro xalq Respublikasining fahriy mehnati bo'lib turadi[1].

Bir vaqtlar Farg'ona fronti qo'mondoni bo'lgan Muhammadaminbek bilan sulh tuzgan Veryovkin-Raxalvekiy Buxoroning bosib olinishida ishtirok etib, Buxoro xalq Respublikasida harbiy xizmatda qoldirilgan edi. U bu yerda harbiy maktab tashkil etadi. Uning yozishicha: „Kunlardan birida, maktabda harbiy

---

[1] Mansurxo'ja Xo'jayev. Shemuhammadbek Qo'rboshi. T.: „Sharq" 2008 y, 231 bet

mashg’ulotlar davom etayotgan paytda usti ochiq avtomobilda bir guruh mehmonlar tashrif buyurishdi. Ular ichida bittasi, ayniqsa, mening diqqat e`tiborimni tortdi. Qaddi qomati kelishgan, Ovrupacha kiyingan, o’ta nazokatli bir kishi mashg’ulotlar borishini harbiylarcha xos sinchkovlik va bilimdonlik bilan kuzatdi. Uning kuzatuvi, bergan savollari harbiy ishni nihoyatda puxta egallaganidan darak berardi. Odob yuzasidan ularning kim ekanliklarini so’ray olmadim. Keyin bilsam, u mashhur Anvar Posho ekan”[1].

Anvar Posho Buxoroda bir oz mehmon bo’lgach, harbiy harakatlarni kuzatish bahonasida Sharqiy Buxoroda yo’l oladi. Uning niyati aslida, milliy-ozodlik harakatini boshqarib, mustaqil Turkiston saltanati barpo etish edi. U Sharqiy Buxoroga kelib, faol harakat boshlab yubordi. Ozodlik harakati yo’lboshchilari bilan aloqa o’rnatib, ularni birlashtirishga intildi.

Anvar Posho bu yerga kelganda, Shermuhammadbek qo’lida harbiy maslahatchi bo’lib turgan turk zobiti Sariq Ismoil Xaqqibekni o’z xuzuriga chaqirtirgan edi. Shermuhammadbek unga qo’shib, o’z qaynotasi Muzaffarxon Mingboshini sovg’alar bilan yuboradi.

1922 yil fevral oyida Anvar Posho Shermuhammadbekka quyidagi maktubni yo’llaydi:

Muhtaram Shermuhammadbek-fidokor mujohid do’stlarim!

Janob Xaqq-Taoloning yordami ila din dushmani bo’lmish bolsheviklarni Dushanba, Sho’rchi, Sariosiyo, Denov, Kabodiyon shaharlaridan quvib chiqardik. Dushman Dushanba va Qabodiyondan boshqa shaharlarni urushsiz tashlab chiqdi. Bolshevik kuchlarining asosiy qismi Boysun garnizonida to’plangan. Shunga ko’ra Darvoz, Bobotog’, Denov, Qoratov, Jilliko’l yigitlaridan iborat kuchlarimiz Boysun shahrini qamal qilib turibdi. Shaharda urush davom etmoqda.

---

[1] Mansurxo’ja Xo’jayev. Shemuhammadbek Qo’rboshi. T.: „Sharq” 2008 y, 232 bet

Inshoolloh, yaqin vaqt ichida bu shaharni ham qaytarib olurmiz. Fisabilloh qilayotgan g'azotdan samar olish uchun shuurli va ittifoq bo'lib bo'lib ishlashimiz ijobat bo'ladi. Shu sababli, ittifoqni tashkil etishimiz uchun Boysun atrofida chaqiriladigan Milliy Misoq (kelishuv) qurultoyiga qatnashishingizni istayman. Shaxsan tashrifingiz mumkin bo'lmagan taqdirda bu anjumanda qatnashish uchun o'rningizni bosa oladigan zakovatli qo'mondonlaringizdan bir nechtasini yuborishingiz lozimlir. Qo'lni qo'lga berib ishlamoq sizdan, fatxunusrat Allohdandir. Boqiy xudoga omonat topshiraman.

Fevral 1922.

Domodi Xalifat-ul-Muslimin

(musulmonlar xalifasining kuyovi) Anvar".

Maktub kelgan paytda Shermuhammadbek qonli jang, hayot-mamot urushi bilan band edi. Qizillar har tomondan qisib kelmoqda. Shu tufayli Shermuhammadbek maktub ham, vakil ham jo'natish imkonini topolmadi. Uch hafta o'tgach, Ismoil Haqqibek ikkinchi maktub bilan yetib keldi. Bu maktub, aslida milliy-ozodlik harakatining strategiyasi va taktikasi, harbiy rejasi hamda qo'rboshilarga yo'l-yo'riq edi:

Muhtaram mujohid Shermuhammadbek.

1. Dushanba va Qabodiyon dushmandan qaytarib olindi. Bu shaharlarni tark etgan dushman Termiz va Boysun garnizonlaridan boshpana topdi.
2. Qo'l ostimdagi mavjud mujohidlar bilan Boysun garnizonini qamal qildim. Kechasiya kunduzi dushmanni ta`qibu-tazyiq qilyapmiz.
3. Yurtimizni dushman qo'lidan qutqarish uchun birinchi ish birlashuvdir. Mujohidlar bir-biriga ishonishi, itoat etishi, fikrlarini hurmat qilishlari shartdir. Dushmanning harakatlari haqida to'g'ri ma`lumot olish yo'li bilan

qayerda bo’lsangiz ham yakvujud jamoa manzarasini kasb etib, dushmanga qarshi qudratli bo’lishingiz lozimdir[1]. Binoan alayh barchangiz bir vatan avlodlari ekanligingiz tufayli ixtilof va ikkilanishlarni yig’ishtirib, bir bayroq ostida jam bo’lib yagona g’oya uchun xizmat qilishingizni so’rayman.

4. Muhtaram vatanparvar mujohidlar: ro’parangizdagi dushman kuchlari yetti yot begonalardir. Ularning oziq-ovqat markazlari bu yerdan juda uzoqdadir. Shuning uchun ham ular sizning o’lkangiz ne`matlari bilan qorin to’ydirmoqda. Sizning ilk vazifangiz dushmanga oziq-ovqat keladigan yo’llarini berkitishdir. Bu masalada juda xushyor bo’lingiz. Odamlar dushmanga yegulik va boshqa vositalarni dushmanga berilishiga qarshi turing.
5. Dushmanning oziq-ovqat keltirish uchun yo’lga chiqqan bo’linmalariga xujum qilib, qo’lga olish bilan birga, doimiy ta`qib boring.
6. Dushman garnizonlariga qo’shimcha yordam kuchlari keladigan yoki Rusiya ichkarisidan yuboriladigan qismlar foydalanadigan temir yo’l, asosiy yo’l va ko’priklarni doimiy nazorat ostida tuting.
7. Har bir lashkarboshi pochta aloqasini tashkil etib, qo’shni lashkarboshilarning ahvolini o’rganib, kerak paytida yordam yuborishlarini so’rash yo’llarini o’ylab topsin. Har o’n besh kunda har bir lashkarboshi o’z ahvoli hamda vaziyatni umumiy qarorgoh Kofirnixonga kelib bayon etsin.
8. Umumiy qarargoh Boysun shahri janubidagi Kofirnixon qishlog’ida tashkil etiladi.
9. 1922 yil 10 apreldan keyin bo’ladigan qurultoyga qatnashish uchun o’z hay`atingizni yuborishingizni so’rayman.

[1] Mansurxo’ja Xo’jayev. Shemuhammadbek Qo’rboshi. T.: „Sharq” 2008 y, 232-233 betlar

Mart 1922.

Buxoro mujohidlarning Islom qo’mondoni

Domodi Xalifat ul-Muslimin Anvar”.

Shermuhammadbek ham janglar bilan ham Farg’ona qo’rboshilari qurultoyini tayyorlash bilan band edi. Shunday bo’lsada, Ismoil Xaqqibekka qo’shib o’z ukasi Ro’zimuhammadbekni Kofirni xon qurultoyida ishtirok etish uchun yubordi. Ro’zimurodbekni, qurultoy o’tgach, Anvar Posho xizmatida qolishi muvofiq ko’rildi. Ro’zimuhammadbek o’zi bilan yuz nafar yigit, sovg’a-salom hamda quyidagi mazmundagi maktubni olib ketdi:

„Janob Anvar Posho hazratlariga!

Boysun shahrini qamal qilgan holda urishayotganingizni bilib boshimiz ko’kka yetdi. Bizga yuborgan maktubingiz katta shodlikka sabab bo’ldi. O’sha xatni qo’shni qo’rboshilarimizga ham yubordik. Biz Farg’ona mamlakatida ruslarga qarshi kurash olib borayotgan shu kunlarda ko’p sonli qizillar atrofimizni o’rab olish uchun har tomondan hujum qilmoqda.

Sizning amringiz ostiga ko’pchilik bo’lib borishni xohlar edik. Ammo ruslarning hujumlari juda kuchayib ketdi. Shu sababli o’zim sizni ziyorat qilgani borolmadim. O’rnimga kenja ukam Ro’zimurodbek qo’rboshini yuboryapman. U bizning salomlarimizni sizga yetkazib, yoningizda qolib, Siz xohlagan paytgacha xizmatingizda bo’ladi.

Farg’ona umumiy lashkari Islom raisi

Jahongir Shermuhammadbek”[1].

---

[1] Mansurxo’ja Xo’jayev. „Shermuhammadbek qo’rboshi” T.: „Sharq” 2008, 235-bet

Ro’zimuhammadbek  Anvar Posho tomonidan katta xurmat va ehtirom bilan kutib olindi. Ro’zimurodbekning besh yillik  harbiy tajribasi borligini dovyurakligi, salohiyatini eshitib bilgan Anvar Posho uni oldingi safda jang qiladigan fidoyilar bo’ltagiga qo’mondon etib tayinladi. Ro’zimuhammadbek o’z vazifasini a`lo darajada bajarib, vatan ozodligi dini islom yo’lida qanday jang qilish kerakligini amalda ko’rsatdi. Uning mahorati, qahramonligi Sharqiy Buxoroning ba`zi  qo’rboshilarida xasad hissini ham uyg’otdi. U Anvar Posho bayrog’i ostida besh oy jang qilib, nomi tillarda doston bo’ldi.

Anvar Poshoning kelishi, milliy-ozodlik harakati boshqaruvini o’z qo’liga olishi bu harakatning butun  O’rta Osiyo bo’ylab avj olishiga turtki bo’ldi.  Kichik bir Farg’onani eplolmay turgan Sho’ro qo’mondonligi endi butun Turkiston o’lkasi bo’ylab janglar olib borishga majbur bo’ldi.

1922 yilning may oyida Shermuhammadbek Baliqchi atrofida va Sirdaryo sohilida qattiq janglar olib bordi.  Iyun oyi boshlarida qizillar G’orbuvo tomon harakat qilishga majbur bo’ldi.

G’orbuvo uchun qonli janglar  yigirma besh kun davom etdi. Bu jang ham milliy-ozodlik kurashi tarixidagi eng yirik va qonli janglardan biri sifatida tarix sahifalarida qoladi. Shermuhammadbek qo’shini fidokorona jang qildi. Biroq kuchlar teng emas edi. Qizillarga yangi-yangi kuchlar qo’shilaverardi, qo’rboshining esa  barcha imkoniyatlari  sarflab bo’lindi. Xullas, bu janglarda ozodlik jangchilaridan uch ming nafari shahid  ketadi, bir ming besh yuztasi asir olinadi. G’orbuvo, Yakkatut, Bo’ston, Bo’zala va yana bir necha qishloq birin-ketin qo’lgan ketdi. Shermuhammadbek qon kechib, qizillar ta`qibida Oltoyga chekinishga majbur bo’ladi[1]. Ushbu mashum yigirma ikkinchi yilning yoz oylarida Muhitdinbek ham katta zarbaga uchradi. Buning ustiga Muhitdinbek va  Isroil qo’rboshi o’rtasida nizo chiqadi. Bu nizoni  o’zidan boshqa hech kim tugata

[1] N.Jo’rayev, Sh.Karimov. O’zbekiston tarixi. T.: „Sharq” 2011 y, 154-bet

olmasligini Shermuhammadbek Oloyga ketayotgan paytda Asakada to'xtaydi va ular o'rtasidagi adovatga chek qo'yadi.

Bu vaqtda qizil armiyaning bir necha dviziyasi uni ta`qib etib, ketma-ket Asakaga yetib keladi. Shermuhammadbek yo'l-yo'lakay jang qilib, O'sh orqali O'zganga yetib keladi. Qizillar O'zganni o'rab oladilar, jang 15 iyuldan 25 iyulgacha davom etadi. 25 iyul kuni Anvar Poshodan chopar kelib, bir amallab O'zganga kirishga muvaffaq bo'ladi va Poshoning maktubini unga topshiradi. Ma`lum bo'lishicha Anvar Posho ham og'ir ahvolda qolgan va madad kuchi yuborishini iltijo qilgan.

Shermuhammadbek o'zining ahvoli nihoyatda og'ir bo'lishiga qaramasdan, qorovul qo'rg'onida ikki ming yigit bilan turgan Nurmuhammadbekka chopar yuborib, Anvar Poshoga yordamga borishini buyuradi. Nurmuhamadbek ertasi kuniyoq Oloy orqali Qorateginga yo'l oladi.

Shermuhammadbek 25 iyulda bir amallab qamalni yorib chiqishga muvaffaq bo'ladi va avval janubga so'ngra janubi-g'arb tomonga, ya`ni Oloyga yo'l oladi. Shermuhammadbekni tirik yoki o'lik holda qo'lga olish haqida qattiq topshiriq olgan qo'mondon Yudin uni izma-iz ta`qib etadi. Shermuhammadbek talofat berishga qaramay, ularga bas kelib, Oloy vodiysiga o'tadigan Art dovoniga chiqib olishga muvaffaq bo'ladi. Yudin bilan izma-iz kelayotgan brigada ta`qibni davom ettiradi.

Janglar Oloy vodiysida ham davom etadi. Shermuhammadbek bu janglarda ham katta talofat beradi. Janglar davom etib turgan bir paytda sovuq xabar yetib keladi: Anvar Posho qizillar bilan jang asnosi shahid bo'libdi. Unga yordam uchun ketayotgan Nurmuhamadbek Qorateginga yetganda shu xabarni eshitib, to'xtab qolibdi va zudlik bilan akasiga bu xabarni yetkazibdi.

Farg'onadagi ahvol tang bo'lib qolgan vaqtda Shermuhammadbek o'zi ham Anvar Posho bilan yelkama-yelka jang qilish uchun Sharqiy Buxoroga ketish,

sharoitga qarab, kelgusi bahorda yana Farg'onaga qaytish, iloji bo'lsa Anvar Poshoni ham o'zi bilan olib ketish edi. Biroq Anvar Poshoning o'limini Nurmuhammadbek Qorategin va Oloy chegarasida Shermuhammadbek bilan uchrashib, xabar rost ekanligini dalillar bilan isbotlanadi.

Shermuhammadbek o'z xotiralarida Anvar Poshoning shahid ketishiga munosabatini shu tariqa bayon etadi: „ ... Poshoning orzusi ustiga ukam Nurmuhammadbekni ikki ming kishilik kishilik kuch bilan Sharqiy Buxoroga yubordim. U yer bizga sakkiz kunlik masofa edi. Nurmuhammadbek Sharqiy Buxoroning Loxshi qishlog'idan yuborgan xabardan Anvar Poshoning shahid ketganini bilib oldim. Ishona olmadim. Chunki bundan avval ham o'n to'rt marta shunday xabar kelgandi. Ammo Sharqiy Buxoro-Farg'ona chegarasida rostligiga ishondim. Achchiq Olma degan joyda xatmi Qur`on qilib, fotihalar o'qib, katta motam ichida xotirasiga hurmatan duolar etdik. Qayg'u hasratimiz yeru-ko'kka sig'masdi. Chunki bizning Bosh qo'mondonimiz, umid nurimiz so'ngan edi[1]. Poshoning shahodat sharbatini ichish haqidagi xabardan juda katta edi. Mening dardu iztirobim juda katta edi. Poshomiz bir necha marta „Yo men yigitlar bilan sizning oldingizga boray, yo siz tashrif buyursangiz", deb xabar yuborgandim. Agar Posho Farg'onaga kelganida bormi, uning dushman qo'liga tushishiga imkon bermasdim. Unga ba`zi birovlardan yomon muomala qilinishiga yo'l qo'ymasdim. Yozuv shunday ekan muyassar bo'lmadi... Turkistonning ozodligi u bilan birga Baljuvanga ko'mildi. Qasosini ololmadik. Ko'p orzu qilishimga qaramay, yuzlarini ko'rish ham nasib etmadi. Alloh jalli jalolluhu nasib etmadi...".

## Anvar Posho kim edi?

Buyuk qo'mondon Anvar Posho 1881 yilning iyun oyida Istanbulda tavallud topgan. Harbiy bilim yurtida, keyinroq Istanbul Bosh shtab akademiyasida tahsil olgan. 1909-1911 yillarda Berlinda Harbiy attashe lavozimida xizmat qilgan.

[1] Mansurxo'ja Xo'jayev. „Shermuhammadbek qo'rboshi" T.: „Sharq" 2008, 240-241 betlar

Turkiya, Makedoniya, Kavkaz, Germaniya, Rossiya hamda hayotining so'ngida Turkistondagi siyosiy jarayonlarda qatnashgan.

Yosh turklar inqilobiy uyushmasi tashkilotchilaridan biri „Ittihod va taraqqiyot" partiyasi asoschisi va rahbarlaridan biri sifatida mashhur 1908 yilda Turkiyada davlat to'ntarilishiga rahbarlik qilib, Sulton Abdulhamid II hokimiyatini ag'dargan hamda mamlakatda konstitutsion monarxiya tuzumini o'rnatgan. 1913 yildagi davlat to'ntarishidan so'ng Anvar Posho Harbiy ministr lavozimini egallaydi.

Bolsheviklar undan qanday razil maqsadlar yo'lida foydalanmoqchi bo'lganini Anvar Posho tez tushunib yetadi. Zero u ruslarning Turkistondagi qilguliklarini, xalqni, dini islomni oyoqosti qilayotganlarini o'z ko'zi bilan ko'radi, hamda ota yurtini o'z qardoshlarini muhofaza qilishdek og'ir, shu bilan birga, sharafli ishga o'z hayotini baxshida etadi.

1920 yil sentyabrda Boku shahrida bo'lib o'tgan Sharq xalqlari qurultoyida ishtirok etadi va o'z bayonatini e`lon qiladi. 1921 yil fevralda esa Moskvada „Musulmonlarning inqilobiy jamiyati ittifoqi" qurultoyini o'tkazadi.

Turkistondagi ahvolni o'ta og'irligini sezgan Anvar Posho o'zining Xoji Somiybek, Nabibek, Hamibek va boshqa safdoshlari bilan Buxoroga ilib, Turkistondagi milliy-ozodlik harakati bilan yaqindan tanishadi.

Anvar Posho butun Turkiston xalqiga murojaatiga e`lon qilib, uni quyidagi so'zlar bilan boshlaydi:

„Orqadoshlar! Turkistonning muqaddas da`vosi yo'lida olib borilayotgan kurashga men ham qo'shilgani keldim..."

Anvar Posho 1922 yil 28 mart kuni Amir Olimxondan barcha qo'shinlarga bosh qo'mondon etib tayinlangani haqida inoyatnoma oladi. 15 aprelda esa qo'rboshilar Anvar Poshoni qo'rboshilarga siyosiy rahbar va qo'mondon etib

saylaydilar. Afg'oniston hukmdori Omonullahon ham uch yuz kishilik sarbozlar hamrohligida qurol-yarog' sovg'a yetib yuboradi[1].

Shundan so'ng Anvar Posho bosh qo'mondan sifatida Rossiya bolshevoylar hukumatiga sho'ro qo'shinlarini Turkistondan olib chiqib ketish to'g'risida ultimatum yuboradi. Bolshovoylar Anvar Poshoni bu talabiga qarama-qarshi har xil tashviqot targ'ibot ishlarini olib borishni asosiy vazifa qilib qo'ydi. Bunga ko'ra Buxoro va Farg'onada istilolchilarga qarshi kurashayotgan frontlar birlashtirilib, musulmon aholisi orasida siyosiy osh olib borish, mahalliy aholiga yon berish, tavba qilgan ,,Bosmachilik harakati" yigitlarini ozod etish, qo'rboshilar orasida nifoq chiqarish, turli ig'volar tarqatib istiqlolchilar safini bo'lib tashlash kabi masalalarni asosy vazifa qilib oladilar. Bunga erishadilar ham.

Ibrohimbek bilan Anvar Posho o'rtasidagi vaziyat buning isbotidir. Ibrohimbek qariyb 10 ming kishilik saralangan qo'shinini Boysundan olib chiqib ketishi hamda Anvar Poshoga bo'ysunmasligini bildirib, isyon ko'tarishi izoh talab etmaydigan haqiqatdir. Sho'ro hukumati 19 aprelda sulh tuzishni taklif etadi. Rossiyani tashqi ishlar xalq komissarligini 10 kishidan iborat delegatsiyasi Boysunga keladilar. Agar Anvar Posho sulhga rozi bo'lsa, ,,Darvoz, Qorategin, Ko'lob, Dushanbe va Hisor kabi viloyatlarni birlashtirib, mustaqil bir davlat tuzib olishi mumkin"ligi ta`kidlangan edi. Ular buning evaziga Turkiston ishlariga aralashmaslik masalasini qo'ydilar.

Anvar Posho esa ruslarga ,,sulh bitimi faqat Turkiston tuproqlaridan butun rus askarlarini olib chiqib ketilgandan keyingina chap mavzu bo'lishi mumkin", deb javob beradi. Albatta qizillar bu shartga ko'nmasdi.

1922 yil 4 avgust juma, Qurbon hayiti kuni. Qurbon hayiti nomozi o'qilgandan so'ng, Anvar Posho o'zining sodiq safdoshlariga qisqacha quyidagi

---

[1] O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. T.: 2001, I-tom, 18-bet

va`zni qildi ,,Men sizlarga hozir hayitlik tarqata olmayman. Agar bizlarning qardoshligimiz haqida bir necha og'iz so'zlar bitilsa, men unga o'z muhrimni qo'yib, bajonidil imzo chekardim. Men o'ylaymanki, bu so'zlar bizning ozodlik uchun olib borayotgan milliy kurashimizdagi harbiy qardoshlik haqida bir ajoyib xotira bo'lib qolardi". Bu vaqtda kutilmaganda qizillarning 3 ta otliq polki, 3 ta eskadroni hujumga o'tib qoladilar. O'rtadagi qilichbozlik jangi qizib ketadi. Orqaga chekinish imkoniyati bo'lsada, Anvar Posho chekinishni o'ziga or biladi. Bir o'zi o'n bir dushmanni chopib tashlaydi. Qizil askarlarni arxivlarida saqlangan bir ma`lumotda Anvar Posho o'zining, 100 ta saralangan jangchisi bilan 18chi otliqlar polkining, 1 eskadroni ustiga tashlanib, yanchib tashlaydi.

Kutilmaganda orqadan urilgan qilich zarbi mohir qo'mondonni qulatadi. Qilich urgan kimsa Anvar Posho qo'lida Muhammad G'oziy nomi bilan xizmat qilib yurgan qizil josus Georgiy Kasparyan edi.

Anvar Poshoning jasadi Dushanbadan 200 km uzoqlikda joylashgan Boljuvon kentining chetan degan joyiga dafn etilgan. Anvar Posho Turkiston mustaqilligi uchun kurashda shahid ketdi. Anvar Posho o'limidan bir necha kun oldin qizil askarlarning boshlig'i O.Akchurincha yozgan maktubida Turkiston unga begona emasligini, uning ajdodlari Turkistondan borib, Turkiyada saltanat qurganliklarini, aksincha boshqalar uchun bu yurt begona ekanligini quyidagicha ta`kidlagan edi: ,,Bu insonlarning tomirida oqayotgan qon xuddi meniki kabi sof turkiy qondur. Bu yer ruslarniki emas, balki turkiy xalqlarning asl yurtidir".

Ha, Anvar Posho o'zining ota yurti uchun kurashgan, Turkistonni oyoqosti qildirmaslik, uning mustaqilligi va ozodligini ko'rish yo'lida o'z jonini tikkan buyuk zot edi.

Anvar Posho nafaqat turk millatining, balki, ayni paytda Turkiston, O'rta Osiyo o'lkalarining, ham mard farzandi desak mubolag'a bo'lmaydi.

## 2.3. Shermuhammadbekning muhojirlar davridagi siyosiy faoliyati

Shermuhammadbek Anvar Posho qabrini ziyorat qilib, Qur`on o'qish niyatida Baljuvonga boradi. Musulmonchilik burchlarini o'tab, qarorgohlariga qaytayotganida, tor bir dara yo'lida Fuzayl Muxsim yoki bolsheviklar so'ziga uchgan bir guruh kishilar tog' tepasidan turib uning yigitlarini toshbo'ron qiladi. Bir necha yigitlaridan ayrilgan Shermuhammadbek bu voqeadan so'ng mahalliy lashkarboshilar yigitlari bilan qonli to'qnashuvlar yuz beradi. Shundan so'ng Shermuhammadbek bu yerda qolish imkoniyati tugaganligiga tan berib, Afg'onistondan boshpana so'rash uchun Darvoz tarafga qarab yo'l oladi.

Shermuhammadbek chegaraga, Panj daryosi sohilidagi Alaykun mavzeiga yetib boradi. U bu yerdan turib, narigi sohildagi afg'on chegaralari boshlig'iga elchi yuborib, o'tashga ruxsat so'raydi. Chegarachilar uning iltimosini qabul qilib, o'tishga ruxsat beradilar.

Afg'onlardan ruxsat olingach, Shermuhammadbek mahalliy aholidan ijaraga qayiqlar oladi. Yigitlarning bir qismi sol va qayiqqa, bir qismi otlari bilan daryodan o'ta boshlaydilar. Yigitlarning katta bir qismi esa, maslahatga ko'ra, Afg'onistonga o'tmay, bir qancha qo'rboshilar qo'l ostida Sharqiy Buxoroda qoldiriladi. Ularga kichik qismlarga bo'linib, Farg'onaga qaytib ketish va kurashni davom ettirish buyuriladi.

Shu tariqa bir ming yetti yuz askardan uch yuz to'qson olti nafari bilan yirik sarkarda 1923 yil boshlarida tarki vatan qilib, Afg'oniston tuprog'idan boshpana topishga majbur bo'ladi. Ona vatanini ko'rish unga boshqa nasib etmaydi.

Afg'onistonga o'tib olishga muvaqqat bo'lgan Shermuhammadbek hamda hamrohlarining u yerda ko'rgan-kechirganlari haqidagi eng ishonchli manba uning xotiralaridir. Xotiralarining Afg'oniston bilan bog'liq qismidan bir parchani Ali Bodomchi kitobidan keltiramiz:

„ ... Afg'oniston chegara maskanidan o'tib, bir hafta yurgandan keyin Badaxshon shahriga olib borishdi. Bizni podshoh Omonullaxonning harbiy qo'mondonlari va pochchasi harbiy tantana bilan kutib olib mehmon qildilar. Boshimizdan o'tgan hodisalardan juda ta`sirlangan holda shundan tasalli berishdi: „Peshonangizga shunday yozilgan ekan, taqdiri ilohiy qarshi turib bo'lmaydi. Sizlar qo'llaringizdan kelganini qildingiz".

Bu yerda o'n kungacha dam olgandan so'ng Xonobodga yo'l odik. Xonobodda ekanligimizda Doxiliya (ichki ishlar) vaziri vakili Xayrulloxon bizni mehmon qildi. Menga bir yilda o'ttiz ming rupiya nafaqa tayinlaganlarini aytdilar[1].

Farg'onadagi urush hali tugamagandi. G'orbuvoda ukalarim Ro'zimuhammadbek va Toshmuhammadbeklar janglarni davom ettirishardi. O'zgan va Qo'qondan ham yaxshi xabarlar kelib turardi. To'xtasinbek Qo'rboshi Sharqiy Buxorodagi ahvolin o'rgangandan keyin sog'-salomat Farg'onaga yetib borib, uch ming kishini atrofiga to'plab, jangga kirishib ketibdi. Ammo biroz vaqtdan keyin o'ttiztacha askari bilan ikki tomondan o'rab olinib, shahid qilingannini eshitdik.

O'sha kunlari Omonullaxon meni poytaxt Qobulga chaqirdi. Askarlarimizning bir qismi Badaxshonda Nurmuhammadbek qo'l ostida edi. Xonoboddagi do'stlarimni Mulla Hotam Qo'rboshiga topshirib, o'n ikki yigitim bilan Qobulga yo'l oldik.

Qobuldagi davlat mehmonxonasiga qo'ndik. Bu yerda Omunullaxonning yaqin va qadrdon do'sti bo'lmish Turkiya elchisi Faxri Posho bilan bir necha muzokaralar olib bordik.

Afg'onistonda turkiyaliklar ko'p edi. Bularning ichida Usmonli zobitlari ancha edi. Jamol Posho bu yerga kelgan paytda Turkiston milliy-ozodlik

---

[1] Mansurxo'ja Xo'jayev. „Shermuhammadbek qo'rboshi" T.: „Sharq" 2008, 260-261 betlar

harakatiga yordam berish uchun bir tashkilot tuzgandi. Mana shu tashkilot hozir ham bor bo'lib men uni ko'rishga orzumand edim. Jamol Posho bu yerda ming kishiga mo'ljallangan harbiy maktab tashkil etgandi. Mana shu ming talaba ichida keyinchalik Omanullaxon zarba bergan Xabibullaxon ham bor edi. Tashkilot bilan tanishuvim paytida Sharqiy turkistonlik Najotiybek hamda Najmiddin Nidoslar bilan ham ko'rishdik. Muloqot natijasida Badaxshonda bitta baqqol do'kon ochib, Turkistonga qurol-yarog' yuborishlari shu yerdan boshqarib turadigan bo'ldik.

Shu paytlarda minglab musulmon turklar Peshavordan Afg'onistonga o'tayotgandi. Ular bilan aloqa bog'lab mushkullarini oson qildik. Ona Vatanga o'tish uchun bir necha askarlarim bilan Qobuldan chiqib Hindistonga yo'l oldim. Ingliz elchixonasi hodimlari bilan ko'rishib yordam so'radim. O'sha kunlarda Leninning o'lgani haqida xabar keldi. Bombayga borganimda Rusiya tashqi ishlari vaziri Chicherin ham o'sha yerda ekan. U bizning faoliyatimiz haqida ingliz idoralariga shikoyat qilganmish. Inglizlar mening yo Sharqiy Turkistonga yoxud Mashhadga ketishim haqida ogohlantirishdi. Pomir tomonga boradigan bir poyezdga chiqdim. Bombaydan uzoqlashishim bilan bir bekatda poyezddan tushib qoldim Piyoda yura-yura ming mashaqqat bilan Himolay tog'i etagidagi Xatara tog'laridan oshib o'tib, Turkistonga yetib keldik. Oyoqlarimizda poyabzal ham qolmagandi. Chor-nachor holatda yigirma besh kun yurib yana Badaxshonga qaytdik..."[1]

U Badaxshonga qaytib kelganida 1924 yil tugab, 1925 yil boshlanayotgan, xalqaro siyosat va Afg'onistonning ichki siyosatda bir oz o'zgarishlar yuz bergan edi. Ma`lumki, sovet hukumati o'zining janubiy chegarasini mustahkamlash, janubiy qo'shnisi bo'lgan Afg'onistonni Angliya tajavuzidan saqlash uchun ham

---

[1] Mansurxo'ja Xo'jayev. „Shermuhammadbek qo'rboshi" T.: „Sharq" 2008, 262-263 betlar

uni xalqaro maydonda himoya qilib keldi, unga siyosiy, iqtisodiy yordamlar ko'rsatdi. Shu tufayli Afg'oniston hukumati xususan uning shohi Omonullaxon va undan keyin taxtni egallagan Habibullaxon Rossiya bilan munosabatlarini buzmalik, uning iqtisodiy yordami va qo'llab-quvvatlashlaridan mahurm bo'lmaslik uchun bu davlatning dushmani hisoblanadigan kishilarni o'z qanotlari ostiga olmasligi tabiiy bir xol edi. Shu tufayli keyingi yillarda Farg'onalik musofirlar ko'p aziyat chekishlariga to'g'ri kelgan.

Shermuhammadbek shu sharoitda ham qo'l qovushtirib o'tirmagan, imkon boricha sovetlarga qarshi kurashni davom ettiradi. Bir vaqtlar Shermuhammadbekka dushmanlik qilib, uni Sharqiy Buxoroga sig'dirmagan qo'rboshilar vaqti-soati yetib, o'zlari ham Afg'onistonga qochib o'tib, musofirlik namagini tortib ko'radilar. Ular Shermuhammadbek bilan bir necha bor uchrashadilar, o'tgan ishlar uchun hamkorlikka kurashni davom ettiradilar. O'ttizinchi yillarning boshlarida bir necha o'n bor chegarani buzib o'tib garchi, katta g'alabagi erisha olmagan bo'salarda, sho'rolarga qarshi kurash hali davom etayotganligini bildirib qo'yadilar[1].

Shermuhammadbek milliy-ozodlik harakatining yirik sarkardalaridan biri Ibrohimbek Laqay bilan bir necha marta uchrashadi. Bir-birlariga o'tgan voqealar uchun uzr-ma`zur qilishadi. Shuningdek, Ibrohimbek, Buxoroning sobiq amiri Olimxon bilan Shermuhammadbekni yaqindan tanishtiradi, ko'z yoshlar bilan samimiy quchoq berib ko'rishadilar, o'tgan ishlar haqida uzr aytishib, kelgusi rejalar haqida fikrlashadilar. Shermuhammadbek 1930 yilga qadar ikki marotaba katta kuch bilan Afg'onistondan turib qizillarga qarshi tashlanadi. Lekin omad unga kulib boqmaydi.

[1] Rajabov Q. Farg'ona vodyisidagi istiqlolchilik harakati: mohiyati va asosiy rivojlanish bosqichlari *1918-1924 yillar). – Toshkent, 1994, 146-bet

Shermuhammadbek Afg'onistonga o'tish ostonasida daryo o'rtasida sol qayiqni bir muddatga to'xtatib, Vatan tuprog'idan ko'z uzolmay iztirob chekib, turli o'y-hayotlarga borganligi, shu jumladan, dushmanlar vatandan judo qilgani bilan kifoyalanmay, yomon otliq qilish, tuxmat, bo'xton toshlarini otishi muqarrarligini yuqoridagi boblarimizda aytgan edik.

Shermuhammadbek 1945 yilga qadar Afg'onistonda, Hindistonda, 1951-1959 yillarda Pokistonda, 1959 yildan 1970 yil 10 martga qadar, ya`ni umrining oxirigacha Turkiyaning Adana shahrida yashagan.

U bir umrlik Vatan qayg'usi bilan 77 yoshida bu yorug' dunyoni tark etadi. Shermuhammadbekning Afg'onistonga o'tib ketgan paytdan boshlab Sho'rolar uni yomon otliq qilish uchun siyqasi chiqib ketgan, biroq sinovdan o'tgan, iflos usullarni qo'llaydilar.

Boymirza Hayit Shermuhammadbekning Afg'onistondagi hattini o'z asarlarida yoritib o'tgan. „Ruslar afg'on hukumatidan Shermuhammadbek va boshqa qo'rboshilarni sovet ittifoqiga qaytarib berishni talab qiladilar. Afg'on hukumati bu talabni rad etadi. Sovet ruslarining qistovi va nayrangiga ko'ra Shermuhammadbek, Nurmuhammadbek va Afg'onistonda qo'nib topgan boshqa qo'rboshilar uo'lanib, ikkinchi jahon urushi tugagunga qadar (olti yil chamasi) qamoqda saqlandilar. Urashdan so'ng ular ozod etildilar. ..."[1]

Shermuhammadbekning keyingi hayotini puxta o'rgangan mashhur olim Rustambek Shamsitdinov esa shunday yozadi:

„ ... Afg'onistonda Omonullaxon, so'ngra Nodirxon podshoxlik qilgan davrda Shermuhammadbekka Afg'oniston t hukumati Sho'rolar bilan aloqani uzmaslik siyosatini olib borardi. Har holda, bu hukumat Shermuhammadbekka bir

---

[1] Boymirza Hayit. Yorug' kunlar orzusida. „Jahon adabiyoti". 1998 yil. 11-son. 34-bet

ming afg'oni oylik berib turdi. Yer ham berdi. Shermuhammadbek keyin bu yerlarni hukumatga qaytargan.

1951 yili Afg'onistondagi ota yurtlik turkistonlik muhojirlar qon-qardosh Turkiyadan boshpana oldilar. Shermuhammadbek va ukasi Nurmuhammadbek bunda bosh-qosh bo'ldilar. Ular Pokistonning Peshavor shahrida turib vatanparvarlarni Turkiyaga kuzatdilar. Jami 1111 kishi Turkiyaga jo'natildi. Shermuhammadbek vaqtincha Peshavorda, Nurmuhammadbek Karachida yashagan. Ular Sharqiy Turkistondan ham ko'plab vatandoshlarni Turkiyaga jo'natish bilan mashg'ul bo'ldilar. ..."[2]

Shermuhammadbekning Farg'onadagi oilasi haqida dastlab yetarli ma`lumotlar uchramaydi. Faqat ba`zi manbalardagi Shermuhammadbek Shohimardonlik Muzaffarxon Mingboshiga kuyov bo'lganligi eslatiladi, ammo izlanishlar behuda ketmaydi.

„ Shermuhammadbek Afg'onistonga o'tib Qobulda yashay boshlaydi. 1924 yili Andijonlik Qobulga borib qolgan Zulfiniso ismli qizga uylanadi. Ulardan Davronbek, Jahongir, Saodatxon, Hosiyatxonlar dunyoga keladi. To'ng'ich o'g'li Davronbek hozirda Nyu-Yorkda, Saodatxon Turkiyaning Adana shahrida istiqomat qilishyapti. Jahongir bilan Hosiyatxonlar Shermuhammadbek Qobuldaligidayoq vafot etishgan. Davronbekning onasi Zulfiniso 1972 yili Adanada olamdan o'tgan. ..."

Nihoyat, 1955 yili Shermuhammadbek o'z oilasi bilan Turkiyaga keladi va Adana shahrida umrining oxirigacha yashaydi. 1970 yil 10 martda Shermuhammadbek olamdan o'tadi. Uning dafn marosi juda katta hurmat, ehtirom, qayg'u bilan o'tkaziladi. Turkiya hukumatidan, dunyoning boshqa joylarida yashayotgan vatandoshlardan, jamoat va ilm arboblaridan vakillar,

---

[2] Shamsutdinov Rustam. Jasoratga to'la hayot sohibi. Andijon, 1991 y, 64-bet

taziyaga keldi. Bu qahramon sharafiga atalgan marsiyalar radio to'lqinlari orqali bir necha kun berib turildi. Uning tobuti butun Adana shahri bo'ylab Turkiya va Turkiston muhtoriyati bayroqlari va mungli musiqa sadolari ostida qabristonga eltib qo'yildi. ...”[1]

Shermuhammadbek Qo'rboshi Qo'shoqboy hoji o'g'li (1893 yili Farg'ona viloyati Toshloq tumanidagi G'orbuvo qishlog'ida tug'ilgan. Turkiston sovet rejimiga qarshi qurolli harakat namoyondalaridan biri (1918-1922), Turkiston-turk mustaqil islom jumhuriyati raisi (1920-1922). Validiyning yozishicha, Shermuhammadbek 1916 yilda podsho Rossiyasi tomonidan mardikorlikka olingan va urush chizig'ida ishlar uchun safarbar qilingan kishilar qatorida Polsha frontiga tashlangan. Turkiston muhtoriyati hukumati qizil askarlar tomonidan ag'darilgach, Shermuhammadbek sovet rejimiga qarshi milliy-ozodlik kurashining ilk bosqichidan boshlab jangga kirgan. 1918-1920 yillarda katta Ergash va Madaminbekning o'rinbosari sifatida Farg'ona vodiysida istiqlolchilarning yirik lashkarboshchisi bo'lgan. Madaminbek istiqlol kurashidan chetlangach 1920 yil bahoridan boshlab Shermuhammadbek Farg'ona vodiysidagi qurolli harakatga rahbarlik qilgan.

Shermuhammadbek Farg'ona vodiysi hududining katta qismini qizil askardan ozod qilib, sovet hokimiyatini tugatgan va shariatga asoslangan boshqaruvni joriy qilgan. U bu paytda BXSR, XXSR va Samarqand viloyatidagi sovet rejimiga qarshi kurashayotgan istiqlolchilar bilan aloqani ham yo'lga qo'ygan. Anvar Posho va Junaidxon bilan 3 tomonlama hamkorlik o'rnatilgan. Shermuhammadbekning Sharqiy Buxoro qo'rboshilari Ibrohimbek va Fuzayl Mahdum bilan munosabatlari yaxshi bo'lgan. Afg'oniston va Turkiya bilan ham aloqalar o'rnatilgan.

---

[1] Mansurxo'ja Xo'jayev. Shermuhammadbek Qo'rboshi. T.: „Sharq”, 2008 y, 266-bet

Shermuhammadbek vodiyda qizil armiyaga qarshi harbiy amaliyotlar olib borish bilan cheklanmasdan, sovet hokimiyati bilan muzokaralar olib borish orqali ham o'z talablarini bayon etgan. Sovet hokimiyati Shermuhammadbekning bu haqli talablarini rad etgach, muzokaralar o'z-o'zidan to'xtab qolgan.

Validiy boshchiligida faoliyat ko'rsatgan ,,Turkiston milliy birligi" tashkiloti bilan Shermuhammadbek boshchiligida Turkiston-turk mustaqil islom jumhuriyati hukumati o'rtasida o'zaro aloqa o'rnatilgan. Samarqandda yarim ochiq holatda o'tgan Turkiston musulmonlarining 2-qurultoyi (1922 y 15-20 aprel) da Shermuhammadbek qatnashib, hukumat faoliyati haqida ma`ruza qilgan. Qurultoy oxirida hukumatning 7 bo'lim va 36 banddan iborat muvaqqat Konstitutsiyasi

( Asosiy qonuni) qabul qilingan.

Qizil armiya tomonidan Turkiston mintaqasiga katta harbiy qismlar tashlangan, Shermuhammadbek Farg'ona vodiysini tark etib (1922 yil 30 dekabr) ukasi Nurmuhammadbek va qo'rboshi To'xtasin Maqsud bilan 450-500 kishini harbiy guruhga boshchilik qilgan holatda dastlab BXSR hududiga, 1923 yil bahorida esa Afg'onistonga o'tib ketgan va Qobulda yashagan.

Shermuhammadbek muhojirlikda ham Turkiston mustaqilligi uchun kurash g'oyasidan voz kechmagan. U Afg'onistondan kichik qo'shin Vaxsh daryosi orqali Sharqiy Buxoroga o'tmoqchi bo'lganida sovet aviatsiyasi yordamida ortga qaytarilgan (1929 yil 15 aprel) Shermuhammadbek Afg'onistonda tuzilgan Turkistonlik muhojirlarning ,,Vatanni ozod qilish" (ba`zi manbalardan ,,Faol") yashirin tashkilotining asoschilaridan biri.

Qobul hukumati 2-jahon urushi davrida Shermuhammadbekni 2 yilga (1943-1945) qamoqda ushlab turgan. Shermuhammadbek ozodlikka chiqqach Hindiston, so'ngra Pokistonning Peshavor (1951-1955) va Turkiyaning Adana (1955y ildan umrining oxirigacha) shaharlarida yashagan. Adana shahrida dafn qilingan.

Shermuhammadbek sovet rejimi davrida „Ko'rshermat ( janglarning birida uning ko'ziga o'q tekkan edi) deb tahqirlangan va uning jangovar faoliyati soxtalashtirilgan. Uning serqirra faoliyati to'g'risida Turkiya, O'zbekiston, Italiya, Germaniya va boshqa mamlakatlarda kitoblar yozilgan[1].

[1] Mansurxo'ja Xo'jayev. Shermuhammad Qo'rboshi. T.: „Sharq" 2008y,288-289 betlar

## 2.4. Mavzuni pedagogik texnologiyalar asosida o`quvchilarga o`rgatish

**Mavzu: Farg'ona vodiysida istiqlolchilik harakati nomoyondalari (Shermuhammadbek Qo'rboshi misolida)**

**П.Maqsad:** Ushbu mavzu orqali o'quvchilarga Farg'ona vodiysidagi istiqlolchilik harakati va uning oqibatlari to'g'risida o`quvchilarga tushuntirish.

**A)Darsning tarbiyaviy maqsadi.**

Ushbu mavzu orqali o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash.

**Б). Dars jixozi:** Dunyo siyosiy xaritasi, proyektor, monitor, tarqatma materiallar, test mavzuga oid jadval.

**В). Dars uslubi:** Baxs-munozaralari.

Yangi pedagogik texnalogiya asosida.

1. Aqliy xujum-5 d
2. Guruh bilan ishlash -10 d.
3. O'tilgan va yangi mavzu. 15-d.
4. Amaliy mashg'ulot. 5-d.
5. Uyga vazifa. 5-d.

**Tashkiliy qism:**

III. Aqliy xujum.

Farg`onadagi istiqlolchilik harakatlari yo`lboshchilari kimlar edi?

Javoblar doskaga yozib boriladi.

**IV.Yangi mavzu bayoni:**

Bu hayot va mamot uchun kurash jarayonida xalq orasida ko'plab jasur sarkardalar, qo'mondonlar, qo'rboshilarning butun bir avlodi yetishib chiqdi. Shahobiddin Yassaviyning „Turkiston achchiq haqiqatlari" kitobida 114 qo'rboshi haqida maьlumot keltirilgan. Ular orasida Farg'ona vodiysida kichik va katta Ergashlar, Muhammad Aminbek (Madaminbek) Shermuhammadbek, Omon Pahlavon, Jonibek qozi, Mahkam Hoji, Isroilbek, Ahmad Polvon, Rahmonquli, Islom Pahlavon, Xorazmda Junaidxon, Zarafshon vodiysida Mulla Abdulqahhor, Jo'ra Amin, Murod Meshkob, Mitan Polvon, Sharqiy Buxoroda Ibrohimbek Laqay, Davlatmandbek va boshqalar bor edi. Bu zotlarning har birini maxsus tadqiq qilish lozim. Sho'rolar davrida ularning barchasiga xalq dushmani degan tamg'a yopishtirilgan, ular haqida biror og'iz ijobiy so'z aytishning mutlaqo imkoni bo'lmagan, aksincha, ular keragicha yomonga chiqarilgan, chin tarix o'rnini yolg'on tarix egallagan edi. Buyuk istiqlolimiz tarixni haqqoniy yoritish uchun keng imkoniyatlar ufqini ochib berdi. Bunday bo'lishni o'sha yomonotliqqa chiqarilgan „bosmachilar", sarkarda lashkarboshilar, qo'rboshilarining o'zlari oldindan bashorat qilganlar, qochonlardir yurt qizil imperiya sirtmog'idan qutilib, mustaqil taraqqiyot yo'liga o'tishlariga qatiyan ishonganlar.

**Uyga vazifa**

Mavzuni o'rganish.

**IV. BOB.**

2.Mashg'ulot jarayonida o'quvchi faol shaxs sifatida o'zi mustaqil fikrlashi, bir xil mohiyatli hodisalarni tushunib, tahlil etishi natijasida voqea-hodisalarda yashiringan ko'zga yaqqol ko'rinmaydigan ba'zi tafsilotlarni mustaqil ravishda ocha olish, xususiyliklarni umumiylikka birlashtira olish qobilyatini o'zida rivojlantirishi lozim. Shundagina, birinchidan o'quvchida dars-mashg'ulotga qiziqish kundan-kunga ortib boradi.

Ikkinchidan, o'z shaxsiy tahlili natijasida hosil qilingan bilim, ko'nikmalar uning xotirasiga o'rnashadi.

Uchinchidan, mustaqil tarixiy-tahliliy usul bilan hosil qilingan malaka va ko'nikmalarni o'quvchilarning o'zi boshqa mavzularni o'zlashtirishda erkin fikrga ega bo'ladi.

O'qituvchi esa o'quvchilarning mustaqil fikrlashini, izlanishini, ijodkorligini boshqarib boradi.

